

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI



“O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY
MEROS”
fanidan
MA`RUZALAR MAJMUASI

Tuzuvchi: O.Axmedova

Toshkent-2018

1-Mavzu: AN'NAVIY HUNARMANDCHILIK BILAN BOG'LIQ BILIM VA KO'NIKMALAR

Reja:

- 1. An'anaviy hunarmandchilik san'ati nommodiy madaniy meros sifatida**
- 2. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilimlar**
- 3. An'anaviy hunarmandchilik san'ati bilan bog'liq xalq qarashlari**
- 4. Xulosa**

An'anaviy hunarmandchilik san'ati har bir xalq maishiy turmushining tarkibiy qismi sifatida asrlar osha shakllanib kelgan milliy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ammo bizgacha yetib kelgan sohalar o'zining ishlab chiqarish uslubini va zo'r san'atini saqlab qolgan bo'lsa-da, mazmunan va shakl jihatdan ancha o'zgargan. Arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan – islomgacha bo'lgan obidalarda, jumladan, ganchdan va sopoldan yasalgan buyumlarda, metall va oltin bezaklarda, devoriy san'at namunalarida tasvirlangan jozibador obrazlarda butun bir maishiy turmush sohasi (ayrim marosimlar va hayot tasviri berilgan pannolarda) namoyon qilingan bo'lsa, undan keyin barcha binokorlik an'anaviy hunarmandchilik san'atida mazmun va shakl deyarli o'zgarib ketgan. Bunda geometrik va o'simliklar shaklidagi bezaklar asosiy o'rinni egallay borgan.

An'anaviy hunarmandchilik san'ati ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolarini badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi, bu narsalar kundalik turmushda o'z o'rnida ishlatiladi, shu bilan birga, insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, o'z ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, ya'ni amaliy va estetik qimmati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi an'anaviy hunarmandchilik san'atida estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalar sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar an'anaviy

hunarmandchilik san'atida narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishilishini ko'rsatib o'tadilar:

1) oddiy, ro'zg'orbob buyumlarga bezak berilib ularga estetik xususiyat ham bag'ishlanadi;

2) chiroyli shaklga keltirib ishlanadi.

Ona Vatanimiz hududidan mezolit davriga oid qadimiy san'at yodgorliklari topilganidan xabardormiz. Neolit davri sopol idishlari qazib olingani va o'rganilganini ham bilamiz: ular qo'lda yasalgan, chiziqli, nuqta va ilonlari tasvirlar qo'l (tirnoq) bilan chizib bezatilgan. Farg'ona vodiysidan miloddan avvalgi 3-mingyillikning oxiri – 2-mingyillik oida jez davri quyma badiiy buyumlari (jez va kumush buyumlar xazinasi) qazib olingan. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, sopol idishlarga keyinchalik handasaviy bezaklar ishlangan boshlagan. Farg'ona vodiysi, Surxondaryo o'troq dehqon aholisi idishlari shu davrda uchburchak, rombsimon yoki kataksimon qizil-qora chiziqli bilan bezatilgan; Amudaryo bo'yida vohasidagi qazilmalar davomida aniqlangan buyumlarda ham shunday tasvirlar jigarang, oq zangaga tushirilgan. Xorazmdagi Tozabog'yop madaniyatiga doir, Buxoro vohasidagi Qizilqir qabristonidagi yodgorliklar ko'rsatadiki, jez davri dasht qabilalari foydalangan sopol idishlardagi uchburchak, ilonlari, archasimon yoki yo'l-yo'l tasvirlar qolip bilan bosilgan. Qovunchi madaniyati idish dastasidagi hayvon shakli; Afrosiyob va Xolchayondan topilgan taqinchoqlardagi bo'rtma tasvirlar shundan dalolat beradiki, miloddan avvalgi IV—II asrlar yodgorliklariga mansub sopol idish va haykalchalarga hayvonlar shakli ishlangan. Ilk o'rta asr (V—VIII asrlar) an'anaviy hunarmandchilik san'ati Sug'd, Tohariston, Xorazm va Farg'onadagi davlatlar madaniyati bir-biri bilan bog'liq ravishda rivojlanganni tasdiqlaydi. Samarqand, Varaxsha yodgorliklari ganch o'ymakorligi, Surxondaryo hududidagi topilmalar yog'och o'ymakorligi rivojlanganligidan xabar beradi.

Ilmiy adabiyotlarda yoritib beriladiki, Afrosiyob, Bolaliktepa va Varaxsha rasmlarida tasvirlangan rang-barang kiyimlar shu davrda badiiy to'qimachilik taraqqiy etganidan shahodaddir. Surxondaryo viloyati Termiz shahri yaqinida joylashgan qabristondan, Pop tumani Munchoqtepa manzilgohidan IV—VI asrlarga

oid kiyimlarning go‘zal namunalari namoyon etadiki, qadimiy farg‘onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilgan. Samarqand viloyatidan qadimiy maxsi, Farg‘ona vodiysidan qolip va charm kesadigan maxsus pichoq topilishi V-VI asrlarda bu oyoq kiyimining urf bo‘lganini bildiradi. Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Qashqadaryo pichoqchilikning qadimiy markazlari bo‘lgan. Pichoqlar faqat uy-ro‘zg‘or buyumi emas, balki harbiy qurol, hunarmandlik asbobi sifatida qo‘llanib kelingan. VI—XII asrlarga oid pichoq namunalari metall tarkibining, pichoq yasash usuli va bezaklarining o‘zgarib, taraqqiy eta borganini ayon qiladi. Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalarini ko‘rish mumkin. VII—IX asrlarda to‘qimachilik taraqqiy etgan, ip, ipak matolardan tashqari qimmatbaho parchalar ham ishlab chiqqarilgan. O‘simlik va handasaviy naqsh-bezaklarga boy, jonzotlar tasviri tushirilgan «zandonachi» matosi bizgacha saqlanib kelgan. Zandonachi matosining mujassamoti taqsim usulida bajarilgan; bir meyorda almashinib turgan turunj bezaklari ichiga bir-biriga qarama-qarshi turgan arslonlar, fil va boshqa hayvonlar tasviri joylashtirilgan.

V—X asrlarda sopol buyumlarning maxsus turi – ostadonlar tayyorlash urf bo‘lgan. Ularni bezashda tasviriy mavzulardan keng foydalanilgan: ajdodlar, homiylar, shuningdek, daraxt va boshqa o‘simliklar, qushlar o‘yma, bo‘rtma va boshqa usullarda ishlangan. VI—X asrlardan shisha idishlarga ehtiyojlar kuchaydi, shuning uchun ular ko‘plab tayyorlangan; ko‘zacha qadahlar, siyohdon, turli idishlar rangli (qizil, olcharang, sariq, ko‘k, yashil), rangsiz shishalardan yasalib, bo‘rtma, bosma, chizma, qadama usullarda bezatilgan. Rang-barang shisha munchoqlarga ham talab oshgan. Marmar qabr toshlar ustiga girih naqshlar o‘yilgan, yog‘och va marmardan panjaralar o‘rnatilgan. Me‘morlik an‘analari boyib, – ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan bir qatorda, – g‘isht qalab naqsh hosil qilish taraqqiy etdi. XII asrda me‘morlikda o‘yma terrakota, sirlangan g‘ishtdan foydalanildi, mahobatli binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplandi, bino ichi ganch o‘ymakorligi, bo‘yama naqshlar bilan bezatildi.

Rangli sirni qo'llash (VIII asr) badiiy kulollik yanada rivojlanishiga yo'l ochdi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda sopol idishlarga naqsh-bezaklar ishlab, bo'yab, ustidan sirlash usuli keng tarqaldi. Dastlab sodda yashil bezak ustidan xira sir qoplangan yoki 2-3 xil rangda sir dog'lari oqizilgan idishlar ishlangan bo'lsa, X—XI asrlarda idishning oq yoki g'isht rang qizil zaminiga rangli angob bilan aniq naqsh mujassamoti tushirilib, ustidan tiniq (shaffof) qo'rg'oshin sir qoplangan. Ma'lumki, shu davr kulolligi (ayniqsa Afrosiyob idishlari)da bezak bilan badiiy shakl bir-biriga mosligini, keskin rangli bezakning aniq ishlanganini va tasvirlarning mahalliyliги («kufiy» yozuvlari, novda, lola, anor, tok barglari tasvirlanishi) bilan ajralib turishini ta'kidlaydilar. Keyingi davr idishlariga esa uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar, yozuvlar va ba'zi hayvonlar shakli tushirilgan: yashil, yorqin havorang sirli idishlar, sirsiz bosma usulda tasvir tushirilgan, naqshli sopol idishlar ham ishlangan. XII asrdan koshindan nozik yupqa idishlar rlashga kirishilgan.

O'rta asr uslubida yaratilgan badiiy metall buyumlar ham e'tiborni tortadi. Bu idishlar (ko'za, qozoncha, shamdon va boshqa) bronzadan yasalib, hoshiya va turunj naqshlar bilan bezatilgan, yozuvlar uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar, ba'zan qush va hayvonlar tasvirlari bilan ham aralashtirilgan, chizma, kandakori va boshqa usullarda ishlov berilgan. Ahmad Yassaviy hazratlari maqbarasida saqlangan ulkan qozon (1390) bezaklari, o'yib naqshlangan eshik (1397), kumush qadab nafis ishlangan shamdonlar o'sha davr an'anaviy hunarmandchilik san'atining nodir namunalaridir. Shishasozlik (turli-tuman rangli qadah, piyola, likobcha va ko'zachalar) va badiiy to'qimachilik rivojlangan. XIII—XIV asrlarda, mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrlarda badiiy sopol idishlar mayda o'simlik va chizma naqshlar bilan bezatilgan; yashil-qora va feruza-havorang bo'yoqlar oq angob ustiga tushirilgan, ustidan rangsiz yoki shaffof sir bilan qoplangan. Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy hunarmandlik yanada ravnaq topdi; nafis matolar, gulli kashtalar, zeb-ziynat buyumlari, badiiy bezatilgan qurollar, ot abzallari, idishlarga katta ehtiyoj bo'lgan. Registon, Shohizinda, Oqsaroy kabi yirik me'moriy ansambllar rang-barang koshin va parchinlar bilan, bino ichi esa halli naqsh va

bo'yama naqshlar bilan, XV asrning 2-yarmidan tilla halli bo'rtma (kundal) naqshlar bilan bezatilgan. Yozma manbalarda Amir Temur saroylariga muayyan mavzudagi tasvirlar, bo'yama naqshlar ishlanganligi ham yozma manbalarda ko'rsatib o'tilgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazmda, Farg'ona vodiysida ko'pchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Turli xil ko'n mahsulotlari: charm, xrom, amirkon va boshqalardan poyabzal, telpak, ustki kiyim, ot-ulov abzallari, qayish, qin va h. buyumlar tayyorlangan. Teriga badiiy ishlov berish an'analari shakllangan. Buyumlar usti muraqqa usulida rangli charm, baxmal parchalari qo'yib, popuklar, qo'ng'irchoqlar qo'shib tikilib, buyumga badiiy tus berilgan. Ayniqsa qog'oz-hujjatlar solib yuriladigan juzdon (juzgirlar)ga turunj naqshlari bosma usulda tushirilib, hoshiyasi nozik o'simliksimon naqshlar bilan orolangan.

Yozma manbalarga ko'ra, XVIII asr zargarlari oltin va kumushga qimmatbaho toshlar qadab toj va kamarlar, qurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. YA'ni XVIII — IX asrlar zargarlari qadimiy zargarlik san'ati an'alarini davom ettirishgan. XI asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf kabi qimmatbaho toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yasashgan. Ularga bolg'alab (zarb berib), hallab o'yib, bo'rttirib naqsh yasab, bosib (siqib), qoliplash usullarida joziba bag'ishlangan.

XX asr boshlarida xalqimiz an'anaviy hunarmandchilik san'ati o'z qadimiy an'alarini davom ettirib, yangi zamonaviy mavzularni ham qamrab olgan holda rivojlandi. Badiiy hunarmandlikning bir qancha sohalari tiklandi. Farg'ona an'anaviy to'qimachilik san'ati namunalari, abr gulli ipak matolar e'tibor qozondi, Buxoro yirik gulli matolaridan tayyorlangan bino ichini bezaydigan badiiy buyumlar, deraza-eshik pardalari, choyshablar, dasturxonlar xaridorgir bo'ldi. An'anaviy chitgarlik, gilamchilik va palos to'qish ustalari mavzuli tasvirlar berish, kishilar siymosini yaratish yo'lida say-harakat ko'rsatdilar. Kandakori buyumlarga ham tasviriy bezaklar berish rasm bo'ldi. XIX asr an'analari asosida tikilgan Chust «tus» do'ppilari, Shahrisabz «iroqi»lari ko'pchilikka yoqd. Zargarlik buyumlari qadimiy an'anaviy usullarda ishlansa-da, shakl jihatidan ancha soddalashtirildi. XX asrning 30-yillari o'rtalaridan sanoatda badiiy matolar ishlab chiqarishga kirishilgan.

Toshkent to'qimachilik kombinati satin, chit, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda esa sun'iy va ipak matolari, 60-70-yillarda Marg'ilon «Atlas» birlashmasi, Namangan shoyi to'qish fabrikasi abr gulli ipak matolar ishlab chiqarilgan. O'sha yillari taqsim usulida yirik gulli qilib ishlangan «arabi» xilidagi, sidirg'a va mayda gulli «terma» paloslar, zardo'zi do'ppi, nimcha, so'zana, palak, gulko'rpa va har xil qiyiqlar, mayda haykaltaroshlik namunalari, an'anaviy sopol hushtaklar, beg'ubor hazil ruhi aks etgan haykalchalar aholi ehtiyojiga yaragan.

An'anaviy hunarmandchilik san'ati XX asrning 80—90-yillarida quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandligini o'z ichiga olgan xalq an'anaviy hunarmandchilik san'ati; yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog'och buyumlar, gilamchilik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar) sanoatni o'z ichiga olgan badiiy sanoat; ko'rgazma, inteyer va manzarali kulollik buyumlari, gobelen, shisha, chinni va zargarlik san'atida an'anaviy bo'lmagan yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bog'liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san'ati.

Mustaqillik an'anaviy hunarmandchilik san'atining barcha shakllari rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'atlar maktablarining noyob an'analarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, akademik ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1997 yil 31 mart) qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va an'anaviy hunarmandchilik san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'analarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Xalq an'anaviy an'anaviy hunarmandchilik san'atining yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan an'anaviy hunarmandchilik san'ati asarlari ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda. an'anaviy hunarmandchilik san'ati ning hamma sohalarida proffesional rassom, haykaltaryoshlar o'rtasida hamkorlik mavjud. An'anaviy hunarmandchilik san'atining shakllanishi, taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublar almashinuvi san'atning boshqa turlari bilan bog'liq ravishda davom etadi.

2-Mavzu: O'ZBEK XALQ KULOLCHILIK SAN'ATI

Reja:

- 1.O'zbek xalq kulolchilik san'atining rivojlanishi**
- 2. Kulochilik maktablari va ularning o'ziga xos jihatlari**
- 3.Sirlangan buyumlarda naqshlar tasnifi**
- 4. Xulosa**

O'zbek xalq kulolchilik san'ati — hunarmandlikning loy (gil)dan turli buyumlar tayyorlaydigan turidir.

Inson kulolchilik bilan neolit davridan shug'ullangan. Maxsus loydan buyumlar qo'lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini ta'minlaydi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug'ullangan, kulollik charxining paydo bo'lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'liq rayonlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Neolit davriga oid qarorgohlarning qazib topilgan qoldiqlari o'sha davrda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganligini ko'rsatadi (idishlar yerga suqib qo'yilgan). Eneolit davrida Sharq mamlakatlarida, Yunonistonda nafis sopol idishlar tayyorlash, sopoldan me'morlikda foydalanish avj oladi. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qimmatini osha bordi.

Afrosiyob va Oʻrta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan arxeologik qazilmalar IX—XII asrlarda kulolchilikning bu yerlarda ancha rivojlanganligini koʻrsatadi, XIII asrda moʻgʻullar hujumlari oqibatida nisbatan sekin rivojlangan kulolchilik XIV—XVI asrlarda ancha taraqqiy etdi. Oʻrta Osiyoning boʻlinib ketishi oʻzaro aloqalar susayishini keltirib chiqardi, lekin hunarmandchilik rivojlanishda davom etdi. Turli joylarda kulolchilikning turlicha uslublari vujudga keldi. Xalq ustalari koʻplab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezadilar. Rossiyadan koʻplab chinni mahsulotlar keltirilishi Oʻrta Osiyo kulollari bozorini birmuncha susaytirdi. Biroq arzon sopol idishlariga boʻlgan talab, ayniqsa, meʼmorlikda kulolchilik mahsulotlarining keng qoʻllanilishi uzluksiz rivojlanishni taqozo etdi.

Oʻrta Osiyoda, ayniqsa, oʻzbeklar va tojiklar yashaydigan joylarda kulolchilik tarraqqiy etdi. Samarqand, Kitob, Shahrisabz, Gʻijduvon, Xorazm, Toshkent, Gʻurumsaroy, Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning oʻziga xos uslublari vujudga keldi. Bu markazlarda tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, koʻrkam naqshlari bilan diqqatni tortadi.

Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini koʻrsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta oʻzgarishlar kiritdi. Oʻtmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmadi. Guldon, tovoq, lagan kabi sopol idishlar va buyumlarga ehtiyoj katta. Meʼmorlikda ham kulolchilik mahsulotlari (koshin, parchin) keng qoʻllanilmoqda.

Oʻzbek kulolchiligidagi badiiy uslub uzoq davr davomida shakllanib, ayrim tumanlarda idish-tovoqlar turlari va naqshlarining oʻziga xosligi saqlanib kelmoqda. Idishlarga beriladigan naqshlar asosan qalami, chizma yoki xaroji uslubida amalga oshirilgan, baʼzan ular birgalikda ishlatilgan.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish koʻra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Fargʻona (asosiy markazlari — Rishton, Gʻurumsaroy), Buxoro—Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, Gʻijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabogʻ qishloqlari),

Toshkent. Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagina xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Kulolchilik O'zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda eng yirik markazlardan Rishton, G'ijduvon, Shahrisabz, Xiva, Xonqa, Samarqand, Toshkent qadimdan mashhur bo'lgan. Masalan, Rishton kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o'zining nozik va murakkab naqshlari, bo'yoqlar koloriti, ayniqsa, osiq ko'k kobatli va feruza rangli bir necha ohanglilik bilan ajralib turadi. Hozirgi Rishton buyumlari qalami uslubida yaratilgan, naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli. G'ijduvon sopol idishlari o'zining rang boyligi va qatlamliligi bilan ko'zga tashlanadi. Ularda ham qalami uslubida to'q jigarrang fonda yashil, to'q sariq, to'q ko'k va qizil g'isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo'lib, bo'rttirilgandek seziladi. Hozirgi Shahrisabz ustalari yirik ornamenti qizil-jigarrang fonda yashil, sariq qizg'ish va ba'zan ko'k ranglar bilan idish-tovoqlarni bezaydilar. Samarqandlik kulollar katta dekorativ shakldagi olti yoki sakkiz qirrali yulduz, doirasimon, o'simlik ornamenti naqshlari bilan o'z mahsulotlarini bezaganlar. Toshkentliklarda ikki xil sopol idishlar farqlanadi, eski xilda yasalgan suyuqlik oqimiga o'xshash yashil, sariq va jigarrang bo'yoqli va hozirgi davrga oid ochiq fonga bitilgan chekkasi gravirovkali, mayda o'simlik ornamentli polixrom bezakli namunalar. Farg'ona kulollari sopol idishlarga oq, ko'k, qizil, yashil, sariq va hokazo tusda sir beradilar. Andijonda sirni ko'proq oq tusda beradilar. Idishga tag sir berilgandan so'ng uning ustidan rangli bo'yoq bilan turlicha, xollar, gullar chiziladi. Kulolchilikning eng qadimgi markazi hisoblangan Xorazmda idish-tovoqlar shakli, ayniqsa katta ovqat idishi - bodiya va laganlari, suvdonlar (xumlar) bilan ajralib turadi. Idishlarga beriladigan gul va geometrik naqshlar asosan to'q yashil va feruza, biroz ko'k va oq ranglardan iborat. O'zbek kulollari yasaydigan har xil figurali o'yinchoqlar, ayniqsa hushtak chaladigan o'yinchoqlar qadimiy davrlardan ma'lum.

O'zbek kulolchilik san'ati ham amaliy san'atning boshqa sohalari singari qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu narsa uning xomashyo, ishlab chiqarish

qurollarining turlari, mehnat taqsimoti, buyumlarning shakli va naqshlari kabilarda ko‘rinadi. Sopol idishga solinadigan gullar va naqshlarning nomlari ba‘zan bir xil, ba‘zan o‘zaro farqlanadi. Farg‘ona vodiysi kulollari, ayniqsa mashhur rishtonlik ustalar ijod etgan naqsh namunalari 300ga yaqin. Shuning ichida naqsh elementlarini ifodalovchi quyidagi so‘zlarni uchratamiz: anorgul, qalampir, tole, qanoti murg‘, qo‘chqaroq (qo‘chqor shohi), guli afishi, sada, gultojixo‘roz, mexroba, zar pechak, bulbulzor, tumorcha, oshpichoq, optovagul, choydish, chetangul, tuyabo‘yin, guzaka, kaptar qanot, oshiqcha, rishtagul, pechak o‘t, sanami, pista, barg, zanjira, osma gul, koshin gul, chor yaproq, guli gajak. Sopol idishlarga tushirilgan naqshlar bir-birini to‘ldiradi, mukammallashtiradi va o‘ziga xos ko‘rk bag‘ishlaydi.

Farg‘ona (Rishton)da kulolchilik an‘anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. G‘urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M.Turopov sir tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo‘lgan barcha ishlarni faqat an‘anaviy usulda bajargan, bu an‘anani uning shogirdi V.Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda.

Buxoro—Samarqand kulolchilik maktabi buyumlarining jarangdor nafisligida qo‘rg‘oshinli sir va sarg‘ish-yashil, jigarrang bo‘yoqlar muhim o‘rin tutadi. «Afrosiyob sopoli» an‘analariga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o‘simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasaviy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi. Ular, asosan, G‘ijduvon kulolchiligida qo‘llaniladi. G‘ijduvon, Shahrisabz ustalari mo‘yqalamda ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko‘p qo‘llaydilar. Buxoro—Samarqand kulolchilik maktabi boshqa maktablardan sopol hushtak o‘yinchoqlar ishlanadigan markazning borligi bilan ajralib turadi. Xorazm kulolchilik maktabi o‘ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o‘ziga xos buyumi badiyadir; naqsh mujassamoti handasaviy va o‘simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan.

Taniqli naqqosh va olim, O'zbekiston xalq rassomi M.R.Rahimov sopol idishlarni sir bo'yoqlariga qarab quyidagilarga ajratadi:

1. Oqpaz idishlar - bunga ishqor bilan sirlangan lagan, tovoq, kosa, piyola kabilar kiradi;

2. Lojuvard — bunga suyuq ovqatlar quyiladigan osmon rangli idishlar va siyohdonlar kiradi;

3. Qatagi va chinni idishlar — bunga qalay qo'shilgan qo'rg'oshin bilan sirlangan o'rtacha kattalikdagi fayans idishlar kiradi;

4. Tagi siyoh - qo'rg'oshindan ishlangan to'q jigarrang sirli idishlar kiradi. (Asosan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi).

5. Qo'rg'oshin - bunga qo'g'oshin bilan sirlangan to'q kullrang, sarg'ish, oq rangdagi idishlar, chunonchi, ko'zagarlik, kosagarlik buyumlari kiradi.

M.Rahimov kulolchilik hunarini ilmiy jihatdan o'rganibgina qolmay, o'z ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sopolchilikni uyg'unlashtiradi. U dastlabki faoliyatida yaratgan buyumlarda yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozisiya namoyish qiladi. Mohir usta ana'anaviy bezakli lagan, guldon va yangi shaklli idishlar bilan birga portret, sovg'a buyumlar yaratgan, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda hayvon shakllarini va yozuvli tasvirlarni ishlatgan. U ko'p yillar mobaynida sopol materiali va bo'yoqlarni o'rganish yo'lida samarali xizmat qilib, bir necha jiddiy asarlar yaratdi. Uning kulolchilik sohasida original yasalgan badiiy buyumlari turli muzeylarda saqlanmoqda.

O'zbekiston kulolchiligi butun O'rta Osiyo buyicha mazkur xunarning markazi xisoblanadi. Respublika xududida joylashgan sirlangan kulolchilikning asosiy markazlari XIX asrlarda shakllangan. Mazkur makolani yozishdan maksad, Uzbekiston zamonaviy usta-kulollarining ijodiy amaliyotidagi mavjud an'analar va uziga xos kashfiyotlarga baxo berish xamda sopoldan ishlangan maxsulotlarni sharxlashdan iborat.

Kulolchilik - Uzbekiston badiiy xunarmandchiligining eng kadimiy turlaridan biridir. U bajarish texnikasiga kura, sirlanmagan va sirlangan kulolchilik kabilarga

bulinadi.

Sirlanmagan kulolchilik buyumlarida birmuncha mutassiblik, asliga mos texnologik va badiiy uslublar saklab kolingan. Bugungi kunda u kishlok axolisi yuzgorda ishlatadigan yirik xujalik buyumlari tarzida namoyon buladi. Bular, ustalar Uzbekistonning ba'zi bir kulollik markazlarida tayyorlab kelayotgan xum, tandir, kuza va boshkalardir.

Kadimdan sirlanmagan va sirlangan sopolsozlikning markazi bulgan Kasbi (Kashkadaryo viloyati) bunday sanokli markazlarning biridir. Bu yerda yul yokalab joylashgan uch-turt xonadonda kulol Ochilovlar sulolasi muvaffakiyat bilan ishlashadi. Ularning buyumlarini istaganlar yul yokasida tuxtab, istalgan buyurtmani berishlari yoki tayyor buyumni sotib olishlari mumkin. Ijodi kadimgi an'analarga asoslangan bunday ustalar sanoklidir. Chunki kundalik xujalik xayoti buyumlariga talab birmuncha arzon va kup xizmat kiluvchi metall xamda plastmassa idishlar bilan kondirilmokda. Bu yerda an'ana tushunchasi uning xakikiy kurinishida saklanib kolgan. Texnologiyasi va shakllarda uzgarish unchalik sezilarli emas. Nakshli bezaklar ularda umuman uchramaydi. Bunday buyumlardan fakatgina maxalliy axoli foydalanadi. Yoz paytlarida, asosan, turli maxsulotlar va suv saklashga muljallangan kushkulok yirik xumlar, kul yuvishda ishlatiladigan oftoba singarilar, baxorda esa gul ustirishga muljallangan guldonlar sotiladi. Non yopishga muljallangan tandirlar esa yil davomida sotiladi.

Shubxasiz, mashxur kulollar kurgazma yoki esdalik sovga uchun muljallangan sirlanmagan sopol buyumlarni xam ishlab chikarishadi, lekin u kadar kup emas.

Mustakillikdan keyingi davrda sirlangan sopolsozlikda ijobiy uzgarishlar yuz bera boshladi. Xukumat karoriga binoan xalk uostasining mavkei mustaxkamlandi. Bir kator kulollar Uzbekiston Badiiy Akademiyasining oliy unvonlari bilan takdirlandilar. Ular orasida Toshkentdan Akbar Raximov, Rishtondan Sharofiddin Yusupov, Fijduvondan Alisher Narzullayev, Samarkanddan Sharif Azimov bordir.

Shunga karamay, turli sabablarga kura, an'anaviy sirlangan

kulolchilikning utmishda mashxur markazlari saklanib kolmagan. Shu bois bugungi kunga kelib, Shaxrisabz kulolchiligi an'analarini tiklashning uddasidan chikisholmadi. Shaxrisabzlik kulollar sulolasining yettinchi vakili Rustam Muzaffarov xunarning bu turini yaxshilab urgandi. Birok uning sopol buyumlari mazkur maktab an'anaviy buyumlari sifati darajasidan ancha uzokda. Umar Jurakulov vafot etgach, Samarkand sirlangan kulolchiligi yuk buldi. Xozirda tashkil etilgan Samarkand terrakotali uyinchok maktabi maxsulotlari butunlay boshkacha tus olgan. U, asosan, folklor manbalarga asoslanadi va unda shaxsiy- mualliflik san'ati kuchli. Denov sopolsozligi yanada ayanchli axvolda. U yerda usta Zuxur Rasulov ishlab kelmokda. Birok u xam keksayib kolgan.

Uning shogirdlari, xunarini davom ettiruvchilar yuk- Uzbekistondagi YUNESKO vakolatxonasi bu yunalishda kupgina amaliy ishlarni bajargan, maxalliy usta I.Eshonkulov ustaxonasi kayta tiklangan va sopol buyumlar pishiriladigan pech ishga tushirilgan bulsa-da, Boysun an'anaviy sirlangan kulolchiligi uzining yetarli darajasiga erisha olmadi.

Kulol Mirzabaxrom Abduvaxobov vodiy an'anaviy kulolchiligini davom ettirgani bois Andijonda axvol birmuncha barkaror, desa buladi. Rishton kulolchiligi an'analari davomchilari oxirgi yillarda birmuncha kupaydi. Birok buyumlarning texnologik va nakshli kompozisiyalari uncha durust emas. Sharafiddin Yusupov va Baxtiyor

Nazirov xozirgi kunda Rishton kulolchiligining yuksak an'analarini davom ettirib, samarali mexnat kilib kelayotgan kulollar sirasiga kirishadi. Gurumsaroy kulolchiligi an'analarini esa mashxur usta Ma'sud Turopovning shogirdi Vaxobjon Buvayev izchillik bilan rivojlantirib kelmokda. Gijduvon va Urgutda ustalar sulolasi bir maromda ishlab kelishmokda. Gijduvonlik mashxur kulol Ibodulla Narzullayev an'analarini uning ugillari Alisher va Abdulla Narzullayev davom ettirmokda. Urgutda kulolchilik san'atini Maxkam Oblokulovning ugli Nu'mon Oblokulov rivojlantirmokda. Xivada maxalliy kulolchilik an'analarini xivalik mashxur usta Odilbek Matchonovning farzandlari Modir kishlogida va kushni kishlok Kattabogda yashovchi kulol Baxodir

Otajonov davom ettirishmokka.

Yukorida nomlari keltirilgan ustalar va kulochilik markazlari zamonaviy kulolchilikning maxalliy maktablari xususiyatlarini saklab kolgan, shuningdek, ularning buyumlari uzida markazlarga xos texnologiya va nakshinkorlikni namoyon etadi. Shunisi e'tiborliki, ularning barchasi nasliy ustalar bulib, «usta-shogird» an'analariga kura taxsil olganlar (bundan Sharafiddin Yusupovning ugli Firdavs mustasno, chunki uning ishlarida mualliflik yondoshuvi birinchi urinda turadi). Bu yerda yangilanish boskichma-boskich yuz beradi, ya'ni texnologik an'analar (loy, uskunalar, ishlov berish usullari, sir va boshkalar) avvalgidek davom ettirilib, nakshlar bezakdorligiga aloxida urgu beriladi. Birok bunda naksh mavzulari butunlay uzgaradi demokchi emasmiz, fakatgina avvaldan ma'lum, mazkur maktab uchun an'anaviy naksh unsurlari yangicha uygunlashtiriladi.

3-Mavzu: MATO BILAN BOG'LIQ HUNARMANDCHILIK SAN'ATI

Reja:

1. Mato bilan bog'liq hunarmandchilik turlari va tasniflanishi

2.Zardo'zlik san'ati

3.Gilamdo'zlik san'ati

4. Xulosa

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari o'rtasida mato bilan bog'liq hunarmandchilik turlari keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va boshqa)ning asosiy qismlari har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Zardo'zlik amaliy san'atning zar ip, nozik sim ipak bilan kashta tikib yaratadigan sohasidir. Har qaysi badiiy-amaliy san'at kasbi zardo'zlik singari katta obro' va hurmatga ega bo'lmagan. Bunday serhasham san'at namunalari uzoq o'tmishda juda ko'p tilga olinib kuylangan. Arxeologik va tarixiy ma'lumotga qaraganda, O'rta Osiyoda zarbof kiyimlar va bezakli badiiy buyumlar eramizning birinchi asrlaridan ma'lum. Masalan, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida qazib topilgan ayol kishining zarbof kiyimi I - II asrlarga oid. O'rta asr yozma

manbalaridan Abdurazzoq Samarqandiyning «Hindiston safarnoma»sida 1442-yili Shohruh zamonida Hindiston bilan Hirot orasida turgan elchilarning sovg'alari ichida zarbof kiyimlarining bo'lganligi to'g'risida xabar bor. O'sha davrga oid «Ishratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etiladi. Hirotlik shoir Vasiyning risolalarida ham zarbof kiyimlar va zardo'zlik kasbi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. XVII asrda yashab ijod etgan atoqli samarqandlik shoir Fitrat asosan zardo'zlik bilan shug'ullangan, u kiyim va matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan.

XX asr boshlariga kelib, zardo'zlikning o'ziga xos Buxoro, Samarqand, Farg'ona maktablari yaratilgan. Chiroyli qilib bezatilgan qimmatbaho matodan tikilgan zardo'zi sarpolar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan zodagonlar, amir saroyidagilar va boy tabaqalar uchun yuzlab qo'ligul mohir ustalar tomonidan tiktilgan. Otabobolarimizdan meros bo'lgan bu kasb egalari zardan bezatilgan kamzul, chakmon, chalvir, belbog', salla, do'ppi, quloqi va poyabzal tikkanlar. Tadqiqotchilarning ta'rificha, hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham mazkur sarpolarni o'ziga buyurtirib kiyishga haqi bo'lmagan, ular amir tomonidan sovg'a sifatida in'om qilingan. Zarbof kiyimlarni xon yoki uning yaqinlari tomonidan birorta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyurilgan va keyin sovg'a sifatida in'om qilingan. Buxoroda to'ntarishgacha hukmdorlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga oid zarbof kiyimlar muzeylarda saqlanmoqda. Zardo'zlarning g'oyibona homiysi Hazrati Yusuf pir hisoblanib, u to'g'ridagi afsona va rivoyatlar maxsus risolada hikoya qilinadi.

Hozir zardo'zlikni badiiy san'at korxonalarida mohir ustalar davom ettirmoqda. Zardo'zlik uch xilda bo'ladi: umumiy ko'rinishi yoppasiga yaxlit kashtalangan, ya'ni zamindo'zi va maxsus qalin qog'ozni mato ustiga qo'yib gul (naqsh) berilgani hamda rasm ustiga yalpi zar to'qilgan. Zardo'zlik mahsulotlari asosan an'anaviy o'simlik ornamentlari bilan bezatilgan, ammo zamonaviy ruhda yulduz, paxta guli kabi naqshlar ham uchraydi. Shu bilan birga mohir ustalar tematik katta pannolar ham yaratgan.

O'ziga xos kashtachilik san'atini tashkil qilgan ipak hamda zar tasma va jiyaklar ilgari ko'plab ishlab chiqarilgan. Ular naqshlari to'qilish yoki tikish jarayonida bitilgan, ba'zilar yaxlit matoga tushirilgan.

To'rtburchak chambarakka o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zardo'zi usulida kashta tikiladi. Kashtada ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar bilan ham ishlatiladi. Oldindan tayyorlangan axta qog'ozlaridan keng foydalaniladi. Matoga mustahkamlangan axta qog'oz zar ip bilan bir tomonlama qoplab tikiladi, natijada naqsh — gul yuzasi zar iplar bilan qoplanadi, matoning teskarisida naqsh — gul shakligina hosil bo'ladi. Zardo'zlar bezak yaratishda bir necha usullarni qo'llaydilar: zardo'zi zamindo'zi va zardo'zi guldo'zi, shuningdek birishimdo'zi, pulakdo'zi va boshqalar. Mustahkamlovchi va tahrir choklarining bir necha xilini mohirona qo'llanilishi hamda ularning naqsh mujassamoti bilan uyqunlashuvi zardo'zi buyumlarga joziba va nafaqat baxsh etadi, ularning badiiy qiymati naqsh mujassamoti, xomashyosi, tikilishi hamda zardo'z ustalarining did va mahoratiga bog'liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an'anaviy o'simliksimon naqshlar va handasaviy naqshlar — davqur, darham, donacha, bodomoy, butador va boshqalardan foydalanadilar.

Zardo'zlik badiiy hunarmandchilik turi sifatida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan. Asosan binolar ichini bezaydigan buyumlar, ayollarning bayram liboslari zardo'zlik bilan tayyorlangan. Arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar O'rta Osiy xalqlari orasida zardo'zi kiyim va buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi.

XV –XVII asrlarda Buxoro, Samarqand, Hirotida zardo'zlik yuksak pog'onaga ko'tarilgan. Uning XIX asrdagi taraqqiyoti Buxoro bilan bog'liq. Buxoroda saqlanib kelayotgan zardo'zlik kasbi uzoq davr mobaynida sayqal topib, takomillashib borgan. Zardo'zlik bilan, asosan erkaklar shug'ullangan, ular ustaxonalarga uyushib ishlashgan, hozir ayollar orasida ham keng tarqalgan.

1890 — 1900 yillardagi zardo'zlik zargarona o'ta nozikligi bilan ajralib turadi. Turli ko'rinishdagi bo'rtma girihlar, yulduzchalar va shunga o'xshash boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turgan, ayniqsa, davqur mujassimoti

alohida o'rin tutgan. Qadimda Buxoroda 350 ga yaqin zardo'z ustalar bo'lgan. XX asrning 20-yillarida barcha amaliy san'at turlari qatori zardo'zlar ham artellarga birlashtirildi, ular xomashyo bilan ta'minlandi, keyinchalik artellar fabrikaga aylantirildi.

XIX asrning 30—60-yillarida zardo'zlik aks ettirilgan mujassamotlar qanchalik oddiy bo'lsa, kashta gullar ham shunchalik ravon va jozibador bo'lgan.

XIX asr 70—80-yillarida zar ip yoki zar aralashib eshilgan ipdan foydalanilgan. Zardo'zlikning zardo'zi birishimdo'zi nomli o'ziga xos turi shu davrga xosdir. Zardo'zlar ayollarning bayram liboslari, an'anaviy buyumlar, erkaklar uchun to'nlar, do'ppilar tayyorlay boshladilar. XX asr 40—50-yillari boshida mahobatli zardo'zi namoyonlar yaratish sezilarli darjada rivojlandi. Dastlabki yirik ish Navoiy teatri uchun tikilgan zardo'zi parda bo'ldi. Rassomlarning amaliy san'at ustalari bilan hamkorligi hamda ijodiy izlanishlar natijasida yangi mujassamotli mayda buyumlar, badiiy jihatidan qimmatli namoyonlar yaratildi va yaratilmoqda. "Kitoba", "Paxta", "Bayram", "Girih", Alisher Navoiyning 525 yilligiga va boshqalarga bag'ishlangan namoyonlar zardo'zlikning katta yutug'i bo'ldi

1990-yillarga kelib, an'anaviy kashtachilikning keng tarqalgan turi zardo'zlik qayta tiklandi Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax shaharlari, Surxondaryo viloyati zamonaviy zardo'zlik san'atining markazlari hisoblanib, zardo'z ustalar chopon, do'ppi, nimcha kabi liboslar qatorida mavzuli namoyonlar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko'zoynak g'ilofi, upa-elik sumkachalarini zardo'zlik usullarida bezatishni rivojlantirdilar.

B.Jumayev, S.Akbarova, T.Sodiqova, G.Bozorova, G.Primqulova, M.Habibova, G.Nurtoeva, M.Muhitdinova, D.Tosheva va boshqalar zamonamizning usta zardo'zlaridir.

B.Jumayev rafiqasi M.Jumayeva bilan birgalikda Buxoro zardo'zlik san'ati maktabini tiklash va rivojlantirish maqsadida 1995 yili markaz tashkil etdi. U zarboft mato sifatida asosan baxmaldan, tikish uchun esa Hindiston, Eron, arab mamlaktlaridan olib kelinadigan turli xildagi zar iplardan foydalanadi. Uning

asarlarida to'pbarggul, palma barglari, gultuvaklar, bodomgul, jimjimador yozuvlar, handasaviy naqshlar, me'moriy naqshlar asosiy naqsh turlari vazifasini bajaradi. Zardo'zi usulida tikish murakkab, ko'p bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi. "Zardo'zi-zamindo'zi" – bezak zaminini to'ldirib tikish; "Zardo'zi-guldo'zi" – qog'ozdan kesilgan naqshli andozani matoga qo'yib, zar ip bilan tikish; "Zardo'zi-guldo'zi-zamindo'zi" – yuqoridagi ikkala gul usul uyg'unlashtirilgan qurama tikish usuli; "Zardo'zi-pulakchado'zi"- pistoncha qadab zar tikish shular jumlasidandir. B.Jumayevning "Bahouddin Naqshband", "Buxoroi Sharif", "Qo'shtovus", "Gultuvak", "Alisher Navoiy" mavzularidagi devoriy namoyonlarining yuqori darajadagi texnik ijrosi hamda muallifning o'ziga xos uslubi va badiiy an'analarning uyg'unlashganligi bilan ajralib turadi

Ustalar va rassomlar yaratayotgan yirik mavzuli zardo'zi buyumlar respublika va chet mamlakatlar ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda, muzeylarda saqlanmoqda. Amaliy san'at muzeyi zaxirasida Buxoro zardo'zlik fabrikasining eng mashhur ustalari Raxmat Mirzayev, Po'lat Hakimov, G'ulom Mahmudov, Nug'mon Aminov, Nurmat Sultonov, Maxsuma Ahmedova, Muyassar Temirova, Xayrulla Xamroyev loyihalari asosida yaratilgan badiiy pannolar — "Paxta, "Kitoba", "Bayram", "Yulduz", "Go'ri Amir", "Ismoil Samoniy maqbarasi", "Anor", "Islimi" kabi mashhur asarlar saqlanadi. Ular ko'chma ko'rgazmalarda jahonning ko'plab mamlakatlarida namoyish qilinib, oltin, kumush medallar va yuqori darajali diplom bilan taqdirlandilar.

Umuman, muzey fondida 500 ga yaqin zardo'zlik buyumlari bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: yirik hajmda ishlangan mavzuli badiiy pannolar, kiyim-boshlar, chopon, nimcha, do'ppi, kamarlar; yostiq jildlar, mayda sumkacha, igna qadog'ich, hamyonlar, choynak, ko'zoynak g'illoflari va hokazolar hamda N.Aminov, V.Nam tomonidan yaratilgan zardo'zlik gullarining xilma-xil nusxalaridan iborat albomlar.

O'zbek hunarmandchiligida, ayniqsa keyingi yillarda qayta tiklanib rivojlana boshlagan badiiy-amaliy san'at sohalaridan gilamdo'zlik uzoq tarixiy an'analarga ega. Gilam va sholcha to'qish, arxeologik ma'lumotlarga qaraganda,

eramizdan avvalgi I ming yillik davrlaridan bizgacha etib kelgan kasb bo'lib, uning markazi Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda joylashgan. Serhasham gullar bilan bezatilgan o'zbek gilam va sholchalari sakkiz-to'qqiz bo'yoqli rangda bo'lib, shulardan eng ko'p ishlatiladigani to'q va ochiq qizil rangdir. Ilgari mahalliy gilamdo'zlar gilam va sholchadan tashqari naqshli bezatilgan xurjun, osma xalta va boshqa buyurtma mahsulotlar ham to'qiganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, O'zbekistonda asosan uch xil gilamdo'zlik maktablari ajralib turadi: Samarqand, Andijon, Xorazm. Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko'k ranglari va gullari bilan farq qiladi. Farg'onada to'q ko'k va geometrik naqshli, qisqa tukli, chetiga alohida-alohida naqshlar ishlatilgan gilamlar to'qilgan. Buxoro gilamlari esa o'zining rang-barangligi, uzun patliligi, kattaligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Dastgohda to'qilgan bunday gilamlar o'zining chidamliligi, nafisligi, tabiiyligi va sifatliiligi bilan ko'zga tashlanadi. Unda hoshiyador estetik jihatdan chiroyli, qalqon deb nomlangan turunj naqshi ko'proq ishlatiladi. Xiva, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda tayyorlanadigan to'qima gilamlar o'zining geometrik o'simliksimon naqshi, bejirimligi, tabiiyligi va zo'r sifati bilan mashhur. Gilamning to'qima, tikma va bosma xillari bo'ladi. O'zbek gilamlari asosan to'qima xilda ishlangan. Ular yopiq holda o'rnatilgan pastak oddiy dastgohda tikuvchi ayollar tomonidan tuya tiviti, qo'y juni, paxta tolasi va ipakdan tayyorlangan. XIX asr oxirlarigacha gilam to'qishda o'simliklardan tayyorlanadigan bo'yoqlardan, hozir esa kimyoviy usulda tayyorlangan bo'yoqlardan foydalanilmoqda.

O'zbekistonning chorvachilik rivojlangan tumanlarida qadim zamondan kigiz bosish amaliy san'ati keng tarqalgan. Mahalliy aholi kigizni ilgari yerga bo'yra (chipta) ustiga solishgan, o'tovlarni o'rashgan, qalpoq, piyma, ayrim hollarda badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Guldor, chiroyli kigizlar oq, qizil, qora rangdagi naqshlar bilan bezatilgan, ba'zan gulsiz bosilgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qora qo'y va chaydim kigizlar, Xorazmda taqyanaman xillari ma'lum. Kigiz qo'yning kuzgi junidan yoki echki junidan tayyorlangan. Jun titib tozalangan, yuvib quritilgan, so'ng maxsus savagichlar bilan titilib, rangi va sifatiga qarab yuzlik va

oraliqqa saralangan. Tanlab ajratilgan jun yuziga maxsus rang bilan to‘qilgan mayin junlardan shoh yulduz, romb, bulut va oddiy geometrik shakldagi naqshlar bilan kigiz bosiladi. Kigizni maxsus chiy sholcha yoki qalinroq matoga o‘rab arqon bilan mahkam bog‘lab ustidan tez-tez qaynoq suv sepib ko‘p marta dumalatiladi. Uni uch-to‘rt kishi o‘tirib qo‘lda dumalatib, uqalab tayyorlaydi. Hozir kigizlar maxsus mashinalarda ishlab chiqarilmoqda. Kigizchilikda ishlatiladigan murakkab naqshlardan gajara uslubi, Samarqandda beshkatma uslubi keng tarqalgan. Hozir ham bezakli, bir necha rangga bo‘yalgan junlardan ajoyib kigizlar bosib chiqarilmoqda.

Badiiy amaliy san’atning noyob turlaridan biri hisoblangan savat to‘qish ham o‘zbekning azaliy hunar-kasbi bo‘lgan. Savat va bo‘yrani ota-bobolarimiz qadimdan tomorqa va hovli atroflaridagi ariq va ko‘llarda o‘sadigan qamishlar, shoh-shabba va har xil novdalardan to‘qiganlar. Ular o‘zining shakli va ishlatilishiga qarab har xil nomda bo‘lgan. Masalan, qadimdan kajava savat, guldor savat, non savat, elama savat, dasturxon savat, uzum savat, to‘r savat, bosma savat kabilar to‘qilib, maxsus savatlar tuproq, qum, ganch, g‘isht, tosh tashishda, nozik novdalardan to‘qilganlari esa meva-cheva, non va boshqa narsalar solishda ishlatilgan. Savat to‘qishda eman, terak, tol, turangil, yulg‘un novdalari yoki qamish, bug‘doypoya kabi materiallardan foydalanilgan. Ayniqsa, qoratal novdalaridan to‘qilgan savatlar ancha chidamli bo‘lgan.

Bo‘yrachilik san’ati mahsulotlaridan ham uy-ro‘zg‘or ishlarida keng foydalanilgan. Bo‘yra gilam, namat, paloslar tagidan solingan. Undan, shuningdek, qop o‘rnida, derazalarni qorong‘ilatishda parda o‘rnida, dafn marosimida, imorat tomini yopishda (lo‘mboz bosishda) va boshqa hollarda flydalanganlar. Shaharlarda va katta qishloqlarda bo‘yrachilar mahllalari bo‘lgan. Masalan, Buxorodagi Olimxo‘ja mahallasida 120 ta oiladan 70 tasi bo‘yra to‘qish bilan shug‘ullangan. Bo‘yralar turli nomlar bilan yuritilgan.

KASHTADO‘ZLIK SAN’ATI

Reja:

1.Kashtadoʻzlik sanʼati va uning rivojlanishi

2. Doʻppidoʻzlik sahʼati

3. Oʻzbek soʻzanalari

4.Xulosa

Kashtadoʻzlik amaliy sanʼatning qadimiy sohalaridan biridir. Arxeologik topilmalar kashtadoʻzlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bogʻliq holda har bir xalqning madaniyati, sanʼati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning taʼsirida rivoj topganini koʻrsatadi. Kashtadoʻzlikning paydo boʻlishi teridan qilingan kiyimlarda bogʻlam va choklarning yuzaga kelishi bilan bogʻliq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga oʻtish bilan, shuningdek, toʻqish, mato toʻqish, boʻyash va boshqa ishlar bilan bogʻliq.

Oʻrta Osiyoda kashtadoʻzlik mahsulotlarining qadimiy xillari deyarli saqlanmagan. Muzeylardagi palak, soʻzana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub. XIV—XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtadoʻzlikning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini koʻrsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo oʻz esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod «Zafarnoma» qoʻlyozmasiga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

Oʻrta Osiyoda, ayniqsa, oʻzbek, turkman, tojik ayollari oʻrtasida kashtadoʻzlik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (soʻzana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va boshqa)ning asosiy qismlari har bir xonadonning oʻzida tayyorlangan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi oʻzbek kashtadoʻzlarining katta sanʼatidan dalolat beradi. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtadoʻzlik mahsulotlari koʻproq yoʻrma chok bilan, Shahrisabzda yoʻrma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa koʻproq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda roʻy bergan oʻzgarishlar kashtadoʻzlik anʼanalariga, mahsulotning

turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z ahamiyatini yo'qotdi. Paranji, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmoqda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Masalan, kashtachilikda qadimiy naqqoshlik san'ati yodgorliklar naqshlari bilan umumiylik, o'xshashlik xususiyatlariga ega bo'lgan motivlar bilan birga doira gil — oy (oy va quyosh tasviri), qush va qo'chqorshoxi kabi simbolik ma'noli arxaiik motivlar ham uchraydi. Qo'chqorshoxi yoki qo'chqorak turkiy xalqlar ornament san'atiga dir naqsh bo'lib, kashta turlarida (do'ppi, jiyak, qiyiqcha, so'zana va boshqalardir), gilamchilik ornamentikasida, kulolchilikda, o'ymakorlikda va tasviriy san'atning boshqa ko'p sohalarida uchraydi. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islmiy gullar kashtado'zlikda ham ko'p uchrashi chizmakashlar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizmalar tayyorlaganini ko'rsatadi. Kashtado'zlikda chizmakashlar yaratgan naqshlar asosida kashtado'zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtado'zlikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari: igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chamberak; keng tarqalgan chok turlari: bosma, kandaxayol, chindaxayol, xomdo'zi, yo'rma, iroqi popur, ilmoq, baxya va boshqalar.

Kashtachilar «iroki», «bosma» (sirtga buttirib tikish), «yurma» (zanjir kashta) usullarini tikish jarayonida uzlari eshgan iplarni ishlatganlar. Fakat «kiz-gilam»ning kashta guliga moslab taxlangan kigiz parchalari foht ustalik bilan tikilganidan choklari xam sezilmagan, ustidan esa «bosma», chetlaridan «yurma» usullarida kirmizi mato parchalari yopishtirib chikilgan, boshka «kiz-gilam»lar esa paloye texnikasida «kokma» usulida tor kavikdi dastgoxda tikilgan va ustidan kulda kashta

tushirilgan.

XIX asr boshlaridagi kashtalarning kadimgi davr Urta Osiyo mifologik timsollari va ana shunday asarlari bilan kiyosiy taxlili ular naksh elementlarining vorisligini aniklash imkonini beradi. Kashtalarda asosiy urinni egallovchi doyra islamiy uslublar bilan bir katorda kadimiylilik belgisi x, isoblanadi. Urta Osiyo xalklarida doyra Kuyoshni, kupincha Oyni bildirgan. Asrlar utsa *amki, nakshdagi baxt-ikbol, farovonlik, tukin- sochinlikni ifodalovchi an'anaviy shakllar gilam tukish va kashtachilikda x, amon kullanib kelinmokda.

Kashtachilik – O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'analariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib, O'rta Osiyoning yirik savdo-hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetikrang-barangligini saqlab qolishi bilan birga, xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Kashtachilik asosan oltita hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg'ona kashtachiligi maktablaridir.

Kashtachilikning yirik markaz laridan biri sanalgan Nurota asrlar mobaynida kashtalarning tasvir aniqligi, o'simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Bu maktabda qo'llaniladigan kompozi siyalarni Buxoro, Shahrisabz, ayrim unsurlarini hatto Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yaratilgan kashtachilik asarlarida uchratishimiz mumkin.

XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldastalar bilan bezatilib, matoning oq foniga tig'iz (zich) to'ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o'zining gulli motivlarining boyligi va rang-barangligi bilan O'zbekiston kashtalari orasida birinchi o'rinda turadi.

Nurota kashtachiligida ko'pincha o'simlik naqshlarining qushlar shakli bilan jonlantirilganligiga nazarimiz tushadi. Ba'zan esa ko'z ilg'a- maydigan ayrim joylarda odam va hayvonlar shaklini ham uchratishi- miz mumkin. Kapggalar yorqin va na fis ranglarda «bosma» choki bilan tikilib, cheti (zigi, raxi) esa «zanjircha» choki bilan bostiriladi.

Nurotada markazida sakkiz qirra li yulduz va maydonning to'rt burchagida katga guldastali yopiq kompozisiyali so'zanalar keng tarqalgan. Kom- pozisiyaning

bunday turi Nurotada «chor shoxu yak moh» - «to'rt shoxu bitta oy» degan ma'noni anglatadi.

Bunday so'zanalar kompozisiyaning aniq tuzilishi (joylashuvi) hamda alohida bo'laklarning (detallarning) mutanosibligi bilan boshqa so'zana- lardan farqlanadi. So'zananing markaziy maydonining burchaklaridan o'rtaga qarab bo'y cho'zgan diagonal tarzda qarama-qarshi joylashgan gul- dasta gullari shakl jihatidan bir- biriga yaqin, lekin detallarning o'zgarishi bilan farqianadi. Chizma kash mohirlik bilan so'zananing bo'shliqlariga katta va kichik hajmdagi shoxlarni (qo'chqor shoxi) motivlarning yakunlovchi vositasi o'rnida joylashtirib chiqqan.

Shu turdagi so'zanalarga XIX asr- ning o'rtalarida Nurota kashtachilari tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda esa O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanib kelinayotgan ajoyib so'zanani kiritishimiz mum- kin. Bu so'zana o'zgacha yengilligi va gulli naqshlarning serjilvaligi bilan ajralib turadi. So'zana orna- menshning ayrim joylarida guldast- tali guldonlar hamda guldastaning o'rtasida anor shaklini ko'rishimiz mumkin. Malla rang, tilla rang, havo rang, pushti, qulpi (nofar- mon) hamda och yashil ranglar bir- biri bilan uyg'unlashib, so'zanaga o'zgacha chiroy baxsh etgan.

Naqshlari romb shaklida tuzilgan hamda tishli barglar bilan bezatilgan («tobadoni»-katakli, pan- jarali) so'zanalar ham Nurota kash- tachiligining yana bir turi hisob- lanadi. Uning kataklari shoxli gul- lar, kosa gullar hamda qushlar va hayvonlarning shakli bilan to'ldi- rilgan. Shunday so'zanalar ham bor ki, ularda mato fonida ayrim gulli motivlar shaxmat tarzida joylashgan. «To'rt shoxu bir oy» va «Shox-shox» kompozisiyalarini o'zida mujassamlagan so'zana bevosi- ta kishi diqqatini jalb qiladi. Bu so'zananing markazida guldasta joy- lashgan, uning atrofi esa to'rtta tovu bilan aylantirilgan. Qolgan maydonda esa nafis va jozibador shoxlar va ko'zachalar shaxmat tarzi- da joylashgan. So'zananing cheti en- siz hoshiya bilan aylantirilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlari da Nurota kashtachiligida keskin pasayish seziladi. Gulli motivlar detallarning rang-barangligini yo'qotib, bir xil doiralarga (kosalarga) aylanib qoladi.

Agar qadimgi so'zanalarni oladigan bo'lsak, ularning burchakdagi guldastalari

43 xil rangdan iborat bo'lsa, keyingi so'zanalarda esa ular bir-biri bilan kam bog'langan yettita doirani (kosani) tashkil eta di. Fabrikada tayyorlangan qizil matoda bir xil gulli ornamentlar bilan to'ldirilgan ko'pgina kashta lar yaratiladi. XIX asrda Nurotada yaratilgan ajoyib badiiy kashtalar bilan ularning o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q.

Nurota kashtalari asosan «bosma» uslubi bilan tikiladi va naqshlarning (gullarning) cheti (zanjircha) ya'ni zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglarida och va yumshoq, nim bo'yoqlar uyg'unlashgan.

Boshqa kashtachilik maktablaridan Nurota kashtachiligi asosan «yo'rma» yoki «zanjircha» uslubi bilan tikilgan shoxchalar (miz) bilan farq qiladi.

Nurota kashtachiligida quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: *so'zana, nimso'zana, taki- yapo'sh, joynamoz, joypo'sh yoki ro'yi- jo, zardevor, gulko'rpa, bo'g'joma yoki bo'qna, dastorpech (dastsalla), belbog', qo'l ro'mol, yostiqlik, zul (jul), oynaxal- ta, choy xalta, choyshab* va boshqalar. Kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut, parcha ipak matolariga tikiladi. Iplari ipak dan yigirilib, bo'yoqlari esa tabiiy o'simliklardan tayyorlanadi. Lekin hozirgi kunda sun'iy tola- dan yigirilgan va kimyoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan iplar kashtachilikda ishlatilmoqda.

So'zana — qalin bo'z yoki ipak materialga tikiladi. Kattaligi 10—12 metrgacha bo'ladi. Nurota so'zanalari- ning nusxalari ikki asosiy turga bo'linadi.

1. XIX asr oxirida yaratilgan doira gul yoki kosa gul nusxasi bo'lib, bitta gul shakli bir nechta bo'lib geometrik tarzda joylashadi.

2. Shoxa gul - chetida hoshiyasi bo'lib, markazda katta besh qirrali yulduz mayda gulchalar bilan ifodalanadi.

Nurota qizlari sepiga albatta o'z qo'llari bilan so'zana tikadi.

Nurota xalqining an'anasiga ko'ra, shunday udumlar borki — bir so'zana tobut ustiga yopilib marhumni oxirgi yo'lga kuzatadi hamda u avloddan-avlodga o'tib boradi.

Nimso'zana — (devorga qoqiladi) yarim so'zana ma'nosini bildirib, XIX asrning boshlaridan tikila boshlangan. Hozirgi kunda nimso'za na kamdan-kam

tikiladi.

Takiyapo‘sh — (devorga qoqiladi) so‘zanaga qaraganda ancha kichik bo‘lib, tikish nusxalari bilan farq qilinadi. «Takiyapo‘sh» so‘zanasi sandiq ustiga yig‘ilgan ko‘rpa-to‘shak ustiga yopish vazifasini o‘tagan. Bu so‘zana Nurotada «Takiyapo‘sh», Samarqandda «Bolinpo‘sh», Shahri- sabzda esa «Yostiopo‘sh» deyilgan.

Joynamoz yoki joypo‘sh — qizlar sepiga to‘rtta joynamoz tikadi. Unda albatta peshtoqli mehrob tasvirlanishi shartdir. Tikish uslubi esa ko‘proq yo‘rma uslubida tikilib, joynamozga hamda kashtado‘zga ko‘z tegmasligi uchun ko‘proq qalampir- munchoq va pichoq sopi nusxalari tasvirlanadi.

Ro‘yijo — kelin-kuyovning yig‘ilgan ko‘rpachasiga yopiladigan so‘zana. Joypo‘shga qaraganda ancha kichik hajmda bo‘ladi.

Bolinpo‘sh — yig‘ilgan yostiq ustiga yopiladigan so‘zana.

Belbog‘ — Nurotada qadimdan har bir qiz bo‘lajak qallig‘iga, qaynotasiga, sovciga va kuyovning boshqa qarindoshlariga belbog‘ tikishi urf bo‘lgan. Belbog‘ning to‘rt tomoni il- moqli bigiz bilan tikiladi va pis- ton, munchoqlar bilan bezatiladi.

Qo‘l ro‘mol — xuddi belbog‘ singari tikiladi, faqatgina o‘lchami belbog‘ning to‘rtidan bir qismiga to‘g‘ri keladi. Har bir qiz sarpasiga 70 tadan qo‘l ro‘molcha tikadi va u kuyovning qarindoshlariga sovg‘a tar- zida tarqatiladi.

Zul, jul — ot ustiga yopiladi. Trapesiya shaklida bo‘lib, chetiga tupakchalar osiladi. Zul asosan bi- giz bilan tikiladi.

Hozirgi kunga qadar kashtachilik an‘analariga e‘tibor kuchli. Bu asosan tayyorlangan matolarda, ularning mavzularida o‘z aksini topadi. Matoni naqshlashda kundalik hayot, milliy liboslar va diniy marosimlar (nikoh to‘y va hokazo) atributlaridan foydalanish, ayniqsa, zarur deb qaraladi. Ushbu buyumlar kelin sepining zaruriy va ajralmas qismi hisoblanadi. Kelin qo‘li bilan tikilgan buyumlar: qo‘l ro‘molcha, belbog‘lar, kuyovning qarindoshlariga, hurmatli meh- monlariga, shuningdek to‘y marosimlarida o‘tkaziladigan kurash, ko‘pkari musobaqalarida yutganlar- ga hamda arqon tortib kelin- kuyov yo‘lini to‘sganlarga hadya etiladi.

Nurota kashtachiligi hamisha ajdodlar an‘analarini asrovchi va zamonaviy ruh berib ularni davom ettiruvchi xilqat bo‘lib qolaveradi. U kishilarga bitmas-tuganmas badi- iy

zavq ulashaveradi.

Do'ppi kashtachiligi o'zbek xalqining g'ururi hisoblanadi. Boshqa amaliy san'at sohalari singari do'ppisozlikda ham har bir joyning o'ziga xos uslub va naqshlari o'zaro farqlangan. Bugun O'zbekiston va qo'shni o'lkalarda mashhur Chust do'ppisi o'zining shakli, odmi uslubi, markaziy qalampiri ornamenti, qora va oq naqshlarining mutanosibligi bilan xarakterlidir. Daraxt ko'chati va barglarini eslatadigan erkin, ko'p rangli naqshlar, ipak bilan kashtalangan do'ppilar ajoyib san'at namunalaridan hisoblanadi. Shahrisabzda to'la va boy naqshlar bilan bezatilgan ochiq rangli do'ppilar, Qarshi, Boysun, Chelak va boshqa tumanlarda tarqalgan kashtali o'ziga xos naqshli qavim qilib to'qilgan piltado'zi alohida ajralib turadi. Xorazm do'ppi (taxya)lari ham o'zining kashta uslubi, shakli va naqshlari bilan alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda hozirgacha Toshkent, Chust, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Do'ppilarning milliy turlari asosan iroqi, chust do'ppi, gilam do'ppi, piltado'zi deb nomlangan. Do'ppi tikishda keyingi yillarda yangi mazmundagi naqshlar paydo bo'lmoqda. Masalan, zo'r kashtakor ustalar «kanal», «samolyot», «parashyut», «kaptar» kabi naqshlar, ism va raqamlar bitilgan do'ppilarni tikib sotuvga chiqargan.

Do'ppi O'rta Osiyo o'zbek va tojiklarning bosh kiyimi bo'lib (bu shakldagi bosh kiyimlarni o'rta Sharq Arabiston hududiga mansub kishilar qadimdan kiyishgan). Ushbu xalqlar milliy liboslarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular tabiat vositalari asosida o'zlarida estetik did va murakkab ma'naviy hayot majmualarini aniqlab keladilar. Qadimdan mavjud bo'lgan o'zbek va tojiklarning bosh kiyimlarning zamonaviy shakli va naqshlari bosqichli rivojlanishlar va solishtirma sayqallanish natijasi o'laroq shakllana bordi.

Do'ppilarning bezalishiga ko'ra ko'p turli noyob nusxalari mavjud bo'lib, ayni izlanishimizda shulardan uchtasining shakl va naqsh uslublari va ramziy jihatlariga alohida to'xtalib o'tamiz. Ular orasudan ikkitasi katta mavqeini egallaydi- aylana va to'rt qirrali aylana, uchinchisi esa-qalpoq shaklidagi do'ppi bo'lib,

yuqoriga tomon cho'zilgan, hozirda esa bunday ko'rinishli do'ppilar faqat muzey to'plamlarida mavjud.

Mutanosibliigi jihatdan ancha oddiy shaklga ega bo'lgan aylana do'ppining ramziy jihatlari, allaqachon o'zining muqobil sharhiga erisha olgan. Bular- "osmon gumbazi", "osmon qubba", shakllari bo'lib, ular insonga qadim o'tmishdan ma'lum. Do'ppilarning bu nusxasini shakllanishidagi dastklabki tayanch shu ediki, inson osmonning ostida va koinotning homiyligida yashaydi natijada, butunning bir qismi bo'lgan inson moddiy va ma'naviy himoyani his qilgan holda, koinot bilan uzviy aloqadorlikka erish oladi. Do'ppilarning bu turi xuddi shu ahamiyatli tomoni bilan Osiyo ko'chmani xalqlari yashash joylari-o'tovlar shuningdek, islom me'morligida xos bo'lgan minora, masjid, saroylar va maqbaralar gumbazlari shaklida ham takrorlanadi.

Aylana do'ppining gardishi ehtimol an'anaviy g'oyani anglatadi, me'moriy mantiqiy tomondan esa o'tmishda esa muqaddas yodgorlik yoki hukmdor taxti joylashtiradigan "tog"larning ma'nosini anglatadi.

Tuzilishi jihatidan ancha murakkab bo'lgan ikki qavatli va to'rt qirrali aylana shaklli do'ppilarning turli nusxalari O'zbekiston Davlat muzeyi fondida saqlanadi.(XX asrlar boshlari ehtimolki bir muncha oldinroq mansubdir) Mashhur "Chust" do'ppilari qora fonda oq naqshli o'zaro muvofiqlikda haqiqatdan ham mumtoz xalq an'alariga hos tarzda to'rtlik "asos"dan va ulardan yuqoriga ko'tariluvchi tepa qismlardan tashkil topgan. U uchburchakli bichimdan iborat matoning to'rt bo'lagidan shakllantirgan cho'qqisimon ko'rinishga ega. Do'ppining bu shakli to'rt qirra asosidagi gumbazining murakkablashtirilgan turi bo'lib, o'z ramziy ma'nosiga egadir. Kvadrat-materiyaning to'rt asosiy unsuri (yer olov, havo, suv) yilning to'rt fasli, sutkaning to'rt davri shuningdek, inson hayotining to'rt pallasi (bolalik o'smirlik yetuklik, keksalikning) ramziy belgisidir, demak yer olamining turg'un unsurlari ramzi bu insonning ham ramzidir. Kvadrat, shuningdek muqaddas ibodatxona Kab'a (kub shaklida) ning ramzidir. Tepa qismi qirrali uchburchak shakli o'zida so'fiylarning ijod ongi g'oyasini aks ettiradi. Ong go'yoki, faol erkaklar omili (negizi) sifatida qalb (sust ayollik omili) ga tta'sir ko'rsatadi,

natijada olam uygʻunligiga erishadi. Choʻqqisimon uchburchak shaklda yaʼni osmonga tik yoʻnaltirishni ongning faolligini hamda yerga munosabatida esa sustlik maʼnosini berib, Islomning ”tananing chirib bitishligi, dunyoning aldamchi v oʻtkinchi ekanligi, shunindek, yuqori osmondagi maʼnaviy olamning mutlaqo bebaho”ligi haqidagi asosiy gʻoyani aks ettiradi. Uchburchak shaklli bu borada yer va osmonni bogʻlovchi hamda biridan ikkinchisiga oʻtish jarayonlarini ramziy maʼnoda mujassamlashtiradi. Aylan va kvadratdan tashkil topgan kompozitsiyalar qadimgi kosmogrammlar boʻlib, kosmos, butun dunyo va kosmik belgilari gʻoyasini bildiradi.

Doʻppi gumbazining toʻrtala gardishi asosida 16ta naqshunkor “ravoqchalardan” har tomonda zanjirlar bilan bezatilgan. Koʻrinishdan bu zamin va koinot olamining ajrakgan va yaxlit holga kelgan bir nuqtasi yaʼni ruh qalb va tana orasidagi yoʻllardir.

Islom soʻfiy dunyoqarashlariga koʻra ruh hayoti aylana ichida oʻtadi. Pasayuvchi yoydan yerga tushadi va yerdagi hayoti tugashi v oʻlimdan soʻng yuqoriga koʻtariluvchi yoy orqali yana qayta boshlangʻich ilohiyotga ravona boʻladi. Uchburchakning tepa qismida chegaralnagn tarzdagi tikilgan qalampirsimon naqshlar har birida bittadan qush qanoti ramzidir. U osmonlarga ravona boʻluvchi va oʻz parvozi bilan osmon va yerni birlashtiruvchidir. Bu yerda bir qator Oʻrta Osiyo xalqlari oʻgʻil va qiz bolalari doʻppilarining turli qushlarning tutam patlari bilan bezatilganligini eslab oʻtish oʻrinli: Oʻzbek- durmen, qirgʻiz-qozoqlarda ukki pati, qorategin va darvaz tojiklarida esa qirgʻiy yoki oʻrdak patidan foydalanilgn.

Oʻrta Osiyoda oq-qora rangdagi “koʻzmunchoq” singai, “chust” doʻppisining qatʼiy manodor oq-qora tuslari ham Oʻrta va Yaqin Sgarqda koʻz tegishining eng kuchli qaytaruvchisi hisoblanadi. Soʻfiylar estetikasiga koʻra qora rang inson uchun tushunarsiz boʻlgan borliq sirlari rangi boʻlib, oxirat va tugalikni anglatadi. Doʻppining qora maydonida oq rangli ”qanot” qalampirning alohida koʻrsatilishi-soflik va butun yerdan ajralganlikning yetakchi ramzidir. Shuningdek, oq rang barcha ranglar qorishigʻidan mavjudga kelgan deb hisoblanadi va shunga koʻra Yagonalik ramzidir. Ayollarning oqilona hayotiy tajribalariga koʻra ulaning

ko‘ylaklari uchun tatbiq etilgan: bu o‘rinda oq qora rangli uyg‘unligidan oq-qora xonatlaslariga ramziy jihatdan qo‘llanilganligi ko‘zda tutiladi (ularni kekxa yoshdagi o‘zbek, tojik, uyg‘ur ayollari kiyishgan) makkada sotiladigan va Haj ustaligi sifatida qadrlanadigan ibodat tasbehida ham bu uyg‘unlikning ramziy qiymati alohida ko‘zga tashlanadi.

Do‘ppining uchinchi turi-konussimon shaklda nomoyon bo‘luvchi kuloh” bo‘lib ularning gardishi (hoshiyasi) kengina bo‘lgan (buning g‘oyasi-yuqoriga intilishni ko‘rsatishj, yoki osmonga eng yaqin yerdagi joy, toshlarni anglatadi) kulohni o‘rta asrlarda ma’naviy ma’rifiy tabaqa vakillari kiyishgan. Uning ustidan salla o‘ralgan. Lekin quloqning uchki qismi ochiq qoldirilgn, bir vaqtning o‘zida ho‘jayining ijtimoiy ahvolini ham belgilab bergan. Darveshlar ham kuloh kiyishgan lekin sallasiz. Bunga aloqador bir matal saqlanib qolgan. ”qalban darvesh bo‘l va undan qalpoqni kiy” shuningdek qorategin va Darvazda qo‘y terisidan bo‘lgan qalpoqlar mashhur bo‘lib, ularda oq va qora teri bo‘lakchalaridan butsimon shakl tikilgan. Bu esa ko‘zlanishdan saqlanishning bir ko‘rinishidir.

Aynan aylana shakldagi do‘ppi naqshlari tadqiqotchilar takraro va takror to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek ko‘zlanish va yozuv kuchlardan saqlovchi g‘oyalar atrofida birlashadi va o‘zalrida hosildorlik qut-baraka va qishki eson-omonloik bahorgi hayotbaxshlik yerdagi hayotning jannat singari bo‘lishi tilakalrini anglatadi. Hozirda bu mavzularning diniy so‘fiyona lavhal;ar bilan bog‘liq bo‘lgan ilk izohlari unutilib ketmoqda. Ularda atirgul butasida nola qilayotgan bulbul mavzusi bog‘liqdir. Do‘ppilarda esa u gullagan shoxchaga o‘tirgan mitti qushcha yoki qush ko‘rinishdia gavdalanadi. 50-yillar boshlarida toshkent do‘ppilarida butsimon chokda ”atirgul” navdasini tikish ombori bo‘lgan. Manbalarda dunyo va uning go‘zaligining so‘fiyona ramzi go‘yo ilohiy ulug‘vorlikning bir qismi sifatida qaraladi. Qaysiki dunyoni barcha qarama qarshi tomonlari ila ko‘rish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Umuman olganda qushlar oliy donishmandlik ilohiy ruh va borliqqa etirosliklining ramzidir. Kungaboqar hosildorlikning qadimiy ramzi, uning gullari quyoshga qarab buriladi (bu yerda quyosh-boshlang‘ich iloha) gul

barglari bir vaqtning o'zida ham pastga ham yuqoriga yo'nalgan. Gulsafsa esa qarama-qarshiliklarni anglatib, islomning asosiy amali-birlik ramzini ko'rsatadi.

Aylana do'ppida naqshlarning joylashuvida nisbat shuni ta'kidlash mumkinki, ularning ko'pchiligini tepa qism atrofida yo'l-yo'l joylashgan bo'lib, oliy yagonalik ramzidir. Ruhning harakati shu nuqtadan keladi. Bu esa ko'tariluvchi pasayuvchi g'oya bo'lib, bezakdor chiziq tishli hoshiyada mujassamlashtirilgan.

Kesib olingan zanjir singari galma-gal pastga va yuqoriga harakatlanadi. Ba'zi bir turdagi naqshlar to'rtta bo'limdan tuzilgan. Bunda butunlikning tartibi va uyg'unligi hisoblangan yerdagi hayotning to'rtta turg'un ramzlari o'zlashtiriladi. Islom madaniyatida arab yozuvida yozilgan muqaddas bitiklar bilan bezatish usuli bag'oyat ahamiyatli bo'lgan. Qur'on yozuvlari kvadrat gumbaz shakli do'ppilarda qo'llanilgan. O'zbekiston Davlat muzeyi jamg'armalarida Xxasr larga mansub shunday do'ppilarning 2 nusxasi saqlanadi.

So'zana so'zi tojik tilidan olingan bo'lib, «so'zan» - ignani anglatadi, ya'ni igna bilan yaratilgan ma'nosini beradi. So'zana xonlar saroylarini ham, kambag'allar kulbalarini ham bezatib turgan. Tabiiyki, xonzodalar ko'zlarini shoyi va atlas matolardagi so'zana gullari quvnatgan bo'lsa, oddiy odamlar uylarida xomsurplar turardi.

Birgina yirik gulni yaratish uchun ba'zan 2 yildan oshiq vaqt talab etilgani bois, qizlar o'z to'yi arafasida qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug' ayollarni hasharga chaqirib, murakkab va mayda gul ishini tugatishlari odat tusiga kirgan. Eng qizig'i esa, so'zanada tugallanmagan bir qismni qoldirishning urf-odatga aylanganida. Buning siri oddiy: xonadonda quvonch bitmas-tuganmas bo'lishi uchun shunday qilinadi.

Naqshlar, odatda, biror-bir ma'noni anglatgan; bahor va tabiatning uyg'unishi, to'kin-sochinlik, go'zallik va nafosat ramzidagi gullar so'zana asosini tashkil etgan. Tabiiyki, so'zana naqshlari ramziy ma'noga ega bo'lib, turli irim-sirimlarni ham aks ettirgan, ayniqsa, to'y marosimlariga mo'ljallangan so'zanalarga yomon nazarlardan saqlovchi naqshlarni solish an'anaga aylangan. Hunarmand ayollarning o'zlari uchun esa so'zana, bu - atrof-olamni shaxsiy nuqtai nazardan aks

ettirishning bir usuli edi. Markaziy maydon, odatda, butun borliqni anglatib, atrofidagi hoshiyalar uning himoya chiziqlari ma'nosini berardi. Kompozitsiyani shu shaklda ifodalash odati hali-hanuz saqlanib kelmoqda.

So'zanalarda o'simlik dunyosining namoyish etilish bejiz emas, albatta. O'simliklar, mevalar, gullar - so'zana tikuvchi ayollar doimiy ravishda murojaat etib kelgan mavzu bo'lgan. So'zanalarda hayvonlar tasviri kamdan-kam uchraydi. Odatda, ular o'simliklarni aks ettiruvchi naqshlar orasida bilinmay ketadi. Bunday tasvirlar ko'pincha qushlar, baliqlar, otlar, hatto ilon va chayonlar bo'lgan. Bir juft qushning tasviri muhabbat va sevishganlarni ifodalagan. Tovus, qirg'ovul, kaklik esa quyosh tafti, to'kin-sochinlik, qut-baraka ramzi bo'lgan. Baliqlar nisbatan kam tasvirlangan, san'atda esa ular serhosillikka qiyoslanadi. Buxoro kashtachiligida otlar tasviri ko'p uchraydi, ular o'z navbatida, boylik va baraka tilash bilan tengdir. Ilon va chayonlarning tasviri ham ramziy ma'noga ega bo'lgan. Bu zaharli mavjudotlar yomon ko'zdan, kinna va suqlardan himoyalovchi tumor sifatida qabul qilingan.

Tabiiyki, qadimiy so'zanalarda uchraydigan ma'no va talqin zamonaviy ustalarning ishlarida u qadar ko'zga tashlanmaydi. Shunday bo'lsa-da, avloddan-avlodga o'tib keladigan so'zana san'atida an'anaviy naqshlar namunali deya e'tirof etib kelinadi. So'zana naqshlari asrlar davomida sirli xilqatdek o'ziga bir olam sir-sinoatni jo etib, insonni yaxshilik va ro'shnolik, ezgulik va go'zallikka chorlab kelgan.

So'zanalardagi tasvirlar ko'pincha Eron gilamlaridagi rasmlarni takrorlardir. Buxorolik mohir chevarlar o'z ishlarida zodagonlar xonadonlaridagi devorlarning naqshidan nusxa ko'chirish orqali dabdabaga intilganlar.

Ot - baxt-saodat timsoli.

Qushcha - omad ramzi.

Shahrisabz so'zanalari shu yurtning betakror go'zalligini ifodalab, matoda biror ochiq joy qoldirmay, uning ustini deyarli butunlay qoplab olardi.

XIX - XX asrlar bo'sag'asida Samarqand so'zanalarining hajmi yiriklashib, naqshlar tobora soddalashib boravergan. Bu holatni buyurtmachilarning ta'bi

o'zgarib borgani bilan izohlash mumkin. Katta hajmdagi so'zanalarni tikish uchun ko'p ip ketardi, ularni ko'rganlar esa so'zana badavlat insonga tegishli ekanini darrov payqab olardi. Ranglar uyg'unligida ham muayyan o'zgarishlar hosil bo'ldi - yashil rang qoraga, ya'ni hamyonbop ranglarga almashtirildi. Keksa chevarlar: «Uyat emasmi? Naqshlarni yashil iplarda tikolmaysizlarmi?», — deya norozilik bildirardilar. Biroq aynan ushbu majburiy chora hunarmandchilikda tub burilishlar yasadi, ya'ni qora, qizil va oq ranglarning uyg'unligi samarqandlik ustalarning o'ziga xos ramziy belgisiga aylanib qoldi.

Shahrisabzlik chevarlar Buxoro amirining saroyi uchun so'zanalar tikishgan. So'zananing bir qismida naqshni tugatmaslik odati bor edi. Bu - xonadonda bitmas-tuganmas baxt-saodat bo'lishiga ishora edi. Farg'ona so'zanalarida bejirim va nozik gul dastalari tasvirlanar edi. Toshkent so'zanalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu, qizil rangning ustunligidir.

5-Mavzu: NAQQOSHLIK SAN'ATI

Reja:

- 1. Naqqoshlik san'atining rivojlanishi**
- 2. Naqshlar bilan bog'liq xalq tasavvurlari**
- 3. Naqqoshlik maktablari**
- 4. Xulosa**

Naqqoshlik amaliy san'at turlaridan biri bo'lib, me'morlik san'atining uzviy qismidir. Binobarin, naqqoshlik san'ati tarixi ham me'morlik san'ati tarixi qadar qadimiylidir. Arxeologik qazilmalar, tarixiy yodgorliklarning davrimizga yetib kelgan namunalari, jumladan, Bolaliktepa devoriy naqshlari (V—VI), Yumaloq tepa (VI—VII, Surxondaryo viloyatida)dan topilgan sirkorlik va o'ymakorlik bezaklari, Varaxshaning naqqoshlik, ganchkorlik bezaklari (VI—VIII, Buxoro viloyati) yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Naqqoshlik san'ati qadimda tasviriy san'at bilan ko'proq yaqin bo'lgan. Yirik inshootlar, saroylarning devoriy bezaklarida jonli mavjudotlar, qushlar, hayvonlar, hatto odamlar tasviri aks ettirilgan. O'rta Osiyoda arablar istilosi davridan boshlab,

jonli mavjudotlar tasviri man etildi, shunga qaramay, xalq san'ati turlari butunlay yo'qolmadi, o'z oqimida asta-sekin rivojlana bordi. Jumladan, dunyoga mashhur Afrosiyob shoh saroyi xarobalaridan (IX—XII asrlar) topilgan devoriy tasvirlardan birida noma'lum musavvirning qilqalami bir Malika qizining kuyovga uzatish manzarasini aks ettirgan. Amir Temurning Samarqand atrofidagi saroy bog'larida harbiy mavzudagi tasvirlar ham bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Naqqoshlik san'atining ravnaqi buyuk Alisher Navoiyning quyidagi baytida juda nozik aks etgan:

Suratingdur o'yla ko'nglum baytul — ahzonida naqsh.

Kim pari timsoli shohning qasri — ayvonida naqsh.

Naqqoshlik san'atining asrlar osha taraqqiysi natijasida O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Xiva kabi yirik shaharlarida an'anaviy uslublar vujudga kelgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlariga kelib, o'zaro ta'sirning kuchayishi, hamkorlik natijasida yana boyidi.

Naqsh yaratish ustadan did, mahoratdan tashqari qunt, uzoq mashq-malaka talab qiladi. Naqqoshlar o'tmishda xalq ustalarining eng bilimdon, iste'dodli qismini tashkil etgan, ular ustodlardan ta'lim olgan, turli fanlar (adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika)ni yaxshi bilgan.

O'rta Osiyo hududidagi me'moriy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar naqqoshlikning bu yerda qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Amaliy bezak san'ati turlari (kulollik, migarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik va boshqalar) hamda me'morlikning taraqqiyoti naqqoshlikning ham rivojini taqozo etadi. Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Ko'hna Urganch, qadimiy Termiz, Ayritom, Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan turli xil uslubdagi naqsh namunalari jozibadorligi ajdodlarning yuksak madaniyatidan darak beradi. Naqqoshlik, ayniqsa, o'rta asrlarda (IX—XII, XIV—XV, XVIII—XIX asrlar)da keng tarqaldi. Kitobat san'atida qo'lyozmalarni mo'jaz asarlar bilan bezashda naqqoshlik, musavvirlik asosiy o'rin tutadi; me'morlikda naqshlarni qo'llash, ayniqsa, taraqqiy etib, o'z qonun-qoidalari hamda uslublari, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va mustaqil mujassamotlariga ega bo'lgan.

O'zbekistonning turli viloyatlaridagi me'moriy yodgorliklar, idish, buyum, mehnat qurollaridagi naqshlarda umumiylik ko'zga tashlansa-da, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Toshkent va boshqa joylarda shu yerlarning o'ziga xos naqsh uslublari vujudga kelgan. Naqqoshlik avloddan-avlodga o'tgan, shogirdlar usulidan o'rgangan naqsh namunalarini iste'dodlari darajasida boyitib borganlar. Naqqoshlikni rivojlantirganlar. O'zbekiston hududi (turli mintaqalari)da o'ziga xos bo'lgan naqqoshlik maktablari shakllangan. Shunga ko'ra, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Toshkent naqqoshligi ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. XX asr o'rtalaridan naqqoshlik bezak mujassamotlariga tasvirlar (me'moriy obidalar, kishilar portretlari va boshqalar) ham kiritila boshlandi. Jumladan, kandakori buyumlar bezagida me'moriy obidalar, chinni buyumlar bezagida esa atoqli kishilarning portretlari va boshqalar o'z ifodasini topdi.

O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilib kelmoqda. Nihoyatda boy mazmunli milliy naqshlarimiz turarjoy va yirik imoratlarning devor hamda shiftlarida oddiy idish-tovoqlar, belanchak, cholgu asboblari, boshqa buyumlarda jilvalanib insonni hayratga soladi.

Ilgari badavlat o'zbek oilalari turarjoylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan. Pastgi izora o'rta qismi va tepa qismi frez deb nomlangan. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa frez qismiga har xil geometrik va o'simlik shakldagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shift o'rtasiga odatda ajoyib karnizlar o'rnatilgan, unga sharafa deb nom berilgan. Shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan. Ganchli qubbalar bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan.

Bu hovuzaklarga islimiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar ko'rpa-yostiqlar bilan jihozlangan.

O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, xashamdor shiftlar millatning nozik did va oliy xis-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi.

Buning yana bir tasdig'i mazkur devorlar va shiftlarga berilgan naqshlarning mutanosibligi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzaga keltirgan edi. An'anaviy naqqoshlik noyob badiiy san'at turlaridan biri — tosh va suyak o'ymakorligi hisoblanadi. Bu san'atni xalq orasida toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham ataydilar. Nihoyatda katta iste'dod, zo'r sabr-toqat, og'ir mehnat talab qiladigan bu kasb qadimdan rivojlanib kelgan. Ma'lumki, dastlabki ishlab chiqarish qurollari toshdan yasalgan.

Ibtidoiy ajdodlarimiz toshning turli navlaridan va suyakdan har xil qurol, asboblari, uy-ro'zgor buyumlari, bezaklar tayyorlaganlar. Eramizning birinchi asrlariga oid obidalar (Fayoztepa, Ayritom Qoratepa, Tuproqqal'a)da harsangtosh va marmardan bezak ishlarida keng foydalanilgan. Ayniqsa o'rta asrlarda toshtaroshlik yuksak darajada rivojlanib takomillashgan. Bunga misol sifatida Amir Temur va Ahmad Yassaviy maqbaralari, Bibixonim masjidi, Xiva, Shahrisabz, Samarqand, Buxorodagi hashamatli masjid va madrasalarning jozibador o'ymakorlik toshlar bilan bezatilganligini keltirish mumkin.

O'zbekiston yogoch o'ymakorlik va naqqoshlik maktablarini asosan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xiva maktablari tashkil etmoqda.

Ushbu maktablarning texnik uslubiy va kompozision tomonlarida ko'pgina o'xshashliklar bilan birga farqli tomonlari ham mavjud.

Masalan, Toshkent yogoch o'ymakorligida «pargori» uslubi keng tarqalgan bo'lib, «pargor» yoki «pargol» so'zlarining o'zi uslubga qaraganda ko'proq naqshlar ro'yxatiga mos ibora hisoblanadi.

U sirkulda chizilgan degan ma'noni anglatadi.

Shu sababli yogoch o'ymakorligi va naqqoshlik kompozitsiyalarida keng tarqalgan doira yoki aylana ko'rinishidagi naqshin gullarni «pargoriy» deb nomlashadi.

Bu uslub deyarli hamma ustalarning asarlarida uchraydi.

Ayni uslub XX asri boshlarida toshkentlik usta S.Xo'jayev ijodida o'zining yuqori cho'qqilariga erishgan. Farg'onalik ustalarning naqqoshlik asarlarida «buta», «guldastalar»ga keng o'rin beriladi. Lekin ular ushbu maktabda birmuncha yaxlit naqshlarning orasi ochiq yirik-yaxlit ko'rinishda ishlaydi. Bundan tashqari, Farg'ona naqqoshligida Rishton kulolchiligiga xos moviy bo'yoqlar ko'p ishlanib, unda asosan o'simlik dunyosi naqshlari yetakchilik qiladi. Chunki aynan ularda mahalliy aholining «jannat bog'i» va kosmogonik diniy falsafa haqidagi tushunchalari o'zining ifodasini topgan. Samarqand va Buxoro yogoch o'ymakorligi ham ko'p tomonlardan Xiva maktabining an'alariga yaqin bo'lsada, ushbu viloyatlarning naqqoshligi o'zidagi kompozitsiya va ranglar majmuasi bilan Farg'ona—Toshkent maktabiga yaqindir. Chunki naqqoshlik san'atidagi maktablar bir-biridan asosan naqshlar tizimi va har bir kompozitsiyaning tasvirlanishi bilan farqlanadi: Toshkentda o'yiladigan gullarning orasi ochiq tasvirlar birmuncha erkin bo'lib ko'rinsa, Xorazmda birmuncha zich navdalarning orasidagi bo'sh joy qoldirilmasligiga katta ahamiyat qaratiladi. Ularda ishlatiladigan ranglar deyarli barcha viloyatlar uchun o'ziga xos. Xiva maktabida ko'p hollarda me'morchilik koshinlarida keng tarqalgan mayda gul va navdalardan iborat islamiy naqshlar ko'p uchraydi. Farg'ona naqqoshligida ham huddi Toshkentda bo'lgani kabi ko'p uchraydigan elementlarni «mehrob», «madoxil», «bodom» va «buta» naqshlari tashkil etadi. Undagi asosiy naqshlarning atrofida yordamchilari — «chorgul», «shobarg», «oygul», «zanjira» naqshlari turlari hamkorlik qiladi. Naqqoshlik san'atida irod qilayotgan har bir usta amaliyot davomida mavjud an'analarni o'zlashtirib, ish jarayonida klassik naqshning juda ko'p ko'rinishlariga muvaffaq bo'ladi. Naqshdagi bir arzimagan chiziq ham naqshning shakl-shamoyilini yoki tasvirdagi mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. 90-yillardan boshlab qurilayotgan bir qancha madaniy-maishiy

xizmat ko'rsatish binolarida va maishiy xarakterdagi buyumlardagi naqqoshlikda ushbu vaziyat namoyon bo'lmoqda.

6-Mavzu: METALGA ISHLOV BERISH SAN'ATI

Reja:

- 1. O'zbek kandakorlik san'atining rivojlanishi tarixi**
- 2. Mis buyumlarga naqsh berish uslublari**
- 3. Kandakorlik maktablari**
- 4. Xulosa**

O'zbek milliy bezak san'atini dunyoga tanitgan yana bir muhim soha kandakorlik, ya'ni metaldan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash kasbidir. Bu badiiy hunarmandchilik ham o'lkamizda qadimiy davrlardan ma'lum bo'lib, u o'z qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Arxeologik topilmalar (bronza qozon, miloddan avval VI—V asrlar, Farg'ona vodiysi, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida; Amudaryo xazinasi tarkibiga kirgan metall buyumlar, mil. av. IV—II asrlar, Britaniya muzeyida; Samarqand Registonidan topilgan metall buyumlarning yirik xazinasi va boshqalar). Kandakorlik badiiy hunarmandlik turi sifatida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida juda qadimdan mavjudligi ma'lum. Dastlab buyumlarga afsonalardagi qahramonlar tasviri ishlangan, arablar istilosidan keyin tasvirlar o'rnini handasiy naqshlar, bezak darajasiga yetkazib ishlangan arab yozuvlarni egallagan. Temuriylar davrida yangi usullarning yuzaga kelishi natijasida kandakorlik san'ati yanada rivojlandi, bezak turlari ko'paydi. XVIII—XIX asrlarda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlarda kandakorlik markazlari bo'lgan. XIX asrning so'nggi choragida kandakorlik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi ularni sanoatda qolip yordamida ko'p nusxada ishlab chiqarishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, kandakorlikning ma'lum darajada susayishiga sabab bo'ldi.

Mahalliy kandakor ustalar oltin, kumush, mis, jez va boshqa metallardan uzoq o'tmishdan buyon turli buyumlar yasab kelmoqdalar. Badiiy metall buyumlarni ishlashning ilk namunalari O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan keng tarqala boshlagan. Dastlabki to'g'nog'ichlarda kichik voqealar, hayvonlar va boshqa mazmundor tasvirlar aks ettirilgan. Masalan, o'sha davrga oid Farg'onada topilgan marosim qozoni kandakorlikda «hayvonot uslubi» mavjudligidan darak beradi. So'nggi antik va ilk o'rta asrlarda mahalliy kandakor ustalar qimmatbaho metallardan hokimlar va zodagonlar uchun to'y-tomosha, taxtga o'tirish, ov va kurash manzaralari, afsonaviy va epik qahramonlar obrazi, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa dunyoviy tasvirlar o'z aksini topgan ko'pgina buyumlar yasaganlar. Islomgacha o'tgan davrda Movaraunnahr aholisi uy-ro'zg'or badiiy buyumlarida dunyoviy voqealar ifodalangan naqshlarning ko'p topilganligi mazkur kasbning nihoyatda keng tarqalganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda nafaqat oltin va kumush buyumlarning zo'r mahorat bilan bezatilishi, balki hashamatli binolarning bezaklariga ham oltin suvi yuritilishi diqqatga sazovordir. Bu davrda mis va uning qorishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ladi, to'g'ri to'rtburchakli barkashlar, shar shaklidagi yumaloq bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, chiroyli siyohdonlar, hayvoncha va boshqalar kandakorlikning yuksak darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Ko'p metall idishlarga har xil mazmundagi, masalan, shaxsni sharaflaydigan, omad, tan-sihatlik, baxt-saodat, farovonlik tilab yozilgan naqshli matnlar «kufiy» va «nasx» uslubida bitilgan. Registon maydonida yaqinida qazib olingan xazinalardagi turli-tuman idishlar, piyolalar, qopqoqlar, ko'zalar, qozonlar o'zbek kandakorligining yana ham rivoj topganligidan dalolat beradi. Sariq va qizil taxta mislardan turli idish-tovoq va xo'jalik buyumlari yasalgan, ular ko'pgina nozik o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Misgarlikning boshqa metalsozlik kasblaridan farqi shuki, misga tob berilmay, ya'ni o'tda qizdirilmay sovuq holida ishlov beriladi. Ammo misgarlar ichi chuqur mis idishlarning qismlarini bir-biriga yopishtirishdagina ularni qizdiradilar. Odatda

misgarlik ikkiga taqsimlangan: yasash va bezash. Idishlarni bezovchi usta naqqosh misgar deb nomlangan.

Buyumlardagi naqsh kompozitsiyalarning har birida naqsh o'yish texnikasining turlicha usuli qo'shib ketgan bo'lib, ulardan naqsh qoidalarining mazmunini anglab olish mumkin. O'zbek naqqosh misgarlari yaratgan mis idishlardagi naqsh kompozitsiyalarning nihoyatda murakkabligi, mavzu va elementlarning rang-barangligi mazkur san'at sohasining uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tganligini ko'rsatadi. Masalan, idishlarga o'yilgan o'nlab, naqsh turlari o'zbek naqqoshlik madaniyatiga xos bo'lgan klassik naqsh namunalaridir. Bu naqshlar xalqimiz boshidan kechirgan ba'zi tarixiy voqealarni, uning dunyoqarashini va orzu-istaklarini, ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini ifodalaydi.

Ayrim elementlar va nomlarga qaraganda, mahalliy ustalarning o'tmishda chet el vakillarining buyurtmalarini bajarganligi yoki o'z ishlarida ba'zan boshqa yurtlar uslubi va stillaridan foydalanganligi seziladi. Masalan, naqsh nomlari orasidagi islimi mashhadi, islimi arabi kabi atamalarning uchrashi chet mamlakatlardagi iste'molchilarning talab va didlari hisobga olinib, mahalliy ustalarning o'z san'atini boyitganligidan darak beradi. Ba'zi buyumlarda, naqshlarda afsonaviy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq turli jonivor (ilon, qush, hayvon, hasharot)larni ifodalovchi shakllarni ochiq sezamiz.

Hozirgi davrda esa misgarlik san'atiga yangicha mazmun va uslub: odamlar mehnat faoliyati, yulduz, paxta guli va barglar, gerb va boshqa rasmiy tasvirli kompozitsiyalar kirgan. Ayniqsa, nozik o'yma naqshlarni qumg'on, jom, mischoynak, miskosa, mis piyola, mischilim, tung yoki mis ko'za (ko'pincha qopqoqsiz, jo'mraksiz) va ko'zacha, mistovoqlarda uchratish mumkin. Ayrim nusxalarga tashqi tomonidan o'yma naqshlar bilan xat bitilgan, ichi oqartirilgan, ba'zan feruza yoki munchoqlar qadalgan.

O'zbek naqqosh misgarlarining leksikasida ishlatiladigan naqsh elementlarining nomlari bu sohadagi yuksak san'atni va boy tarixni namoyish qilibgina qolmay, kishilar dunyoqarashi, madaniyati va turmush darajasini ham

ifodalaydi. Masalan, koʻhna naqsh elementlaridan quyidagi namunalar diqqatga sazovordir:

1. Islimi naqshning turlari - islimi arabi, islimi afshon, islimi bodombargi, islimi davron, islimi doira, islimi meva, islimi mugja, islimi mukarrariy, islimi tanob, islimi xovanda, islimi kavs, islimi chorqubba, islimi humo va hokazo;

2. Oʻsimlik bargi va guli bilan bogʻliq naqsh nomlari; bargi annos, bargi mushk, bargi bodom, tolbargi, gajakgul, guli afshon, guli nosira, guli sanjara, guli sarmugon, guli xurgid, guli tojixoʻroz va hokazo.

3. Idishlarga oʻyilgan naqsh turi madoxil elementlarning nomlari ham yuqoridagi qoʻshimcha soʻzlarga toʻgʻri keladi.

4. Boshqa turlicha namunalardan atirgul, kurmak bulbul, bobomcha, naqshi ganch, naqshi gulxan, naqshi girdish, oy naqshi, oʻrdakgul, naqshi sumbula, tugma naqshi, chekmagul, chortaxt, yuldizgul, naqshi koʻzoynak, naqshi chorbuta, chashma zebor va hokazolar.

Mazkur atamalar nafaqat oʻzbek tilining boyligi, balki bezak berilgan buyumlarning xilma-xilligi hamda sanʼatning yuksakligidan darak beradi. Masalan, turli oʻsimliksimon, geometrik va ramziy naqshlar bilan nafis qilib bezatilgan mis laganlarning lavxoʻri, doʻlava va qoʻshigʻlik turlari, yuz-qoʻl yuvishda ishlatiladigan qumgʻon, dastshuv va oftobalar, suv idishlaridan tung, satil va sarxumlar, nihoyatda keng tarqalgan mis choynak, mis koʻza, choydish (choyjush), kashkil (mis choynak), selabcha, chilopchin, lufdon va boshqa uy-roʻzgʻor asboblari ham misgarlikning muhim badiiy soha ekanligini koʻrsatadi.

Misgarlik kasbi har bir viloyatda oʻziga xos buyumlar va ularga beriladigan naqshlar bilan oʻzaro farqlanadi. Masalan, qoʻl yuvish uchun ishlatiladigan idish Buxoroda oftoba deyilsa, Samarqand, Toshkent viloyatlarida obdasta, Xorazmda qumgʻon deb yuritiladi va ular shaklan har xil boʻladi. Tadlqiqotchilar taʼrificha, ular qadimgi afgʻon oftobalariga oʻxshash nafis, koʻrkam va silliq pardozlangan. Xivada oftoba (qumgʻon)lar yassi, boʻgʻzi uzun va ingichka boʻlib, dastasi boʻlmaydi. Shahrisabz ustalari oftobalarga rangli oynachalar, rangli surgichlardan va sirlardan, boʻyoqlardan gullar solishgan. Buxoro misgarlari yaratgan oftobalar

bo'yi pastroq, katta va ingichka bo'g'izli, gul solingan, og'zi qabariq bo'lib, kungurali qopqoqcha bilan berkitilgan. Qarshi oftobasining jo'mragi biroz yuqoriga egilgan holda tik o'rnatilgan. Buxoro misgarlari qarshi ustalari tayyorlagan oftobalar bo'g'ziga, jo'mragi atrofiga naqshlar, o'yma gullar, rangli oynalar, qorniga esa oq metaldan chiroyli bezaklar o'ygan. An'anaviy buyumlardan darveshlarning chelakka o'xshash idish (koshkin)lari chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Xon va beklar ovga chiqqanda ishlatiladigan do'mbir (dovul)lar ham ajoyib qilib bezatilgan. Har xil shamdon, o'sma to'shak, surmadon, qalam solinadigan mis manqaldon, mis kosa, sharbat kosa, mis qozonlar, cho'mich, kapgir va boshqalarga ajoyib naqshlar berilgan.

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona kandakorlik maktablari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bezak berish uslubi, shakli va ornamentlari bilan ham o'zaro farqlangan. Har bir maktab buyumlarining nafosatlilik, go'zalligi, umumiyli bilan ham bir-biridan ajralib turgan.

O'zbekistonda XIX asr oxiriga kelib, usulining o'ziga xosligi, zarbning chuqur yoki sayozligi, naqshlar yuzasi va zaminini bezashda qo'llaniladigan usullariga ko'ra, bir-biridan farqlanadigan kandakorlikning bir necha (Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Xorazm) maktablari shakllanadi. Farg'ona kandakorlik ustalari (Abdufozil Otaullayev, Mulla Siddiq Otaullaev va boshqalar) buyumlarni bezashda ko'rkam bog'lar, chamanzorlarni eslatuvchi nafis naqshlarni sayoz, tor zaminli qilib ishlaganlar, o'ziga xos tarzda pardoziqlaganlar, ba'zan mujassamotga me'moriy tasvirlar ham kiritilgan. Toshkent kandakorlik maktabi vakillari yirik buyumlarga an'anaviy naqshlarni yirikroq qilib ishlaganlar, bezakda sodda naqshlar (mehrob, zanjira, zuluk, olmagul va boshqalar)ni qo'llaganlar. Buxoro kandakorlik maktabi vakillari (Hakim Buxoriy, Do'stmuhammad Rizo va boshqalar) buyumlarni o'rtacha hajmda nafis, baytlarni ko'p qo'llagan holda bezaganlar. Qarshi — Shahrisabz kandakorlik maktabiga Buxoro kandakorlik maktabining ta'siri kuchli bo'lgan, ustalar buyumlarni, shuningdek, shisha, feruza ko'zlar qalab bezaganlar, naqsh zaminini rangli loklar bilan

bo'yalgan, ba'zan buyum sirti qolipaki usulida ishlangan bezaklar bilan qoplangan. Samarqand kandakorlik maktabi vakillari buyumlarni shabaka usulida (panjarasimon) bezaganlar, naqshda shobarg keng qo'llanilgan, naqsh zamini chekma gullar bilan pardozlangan. Xorazm kandakorlik maktabi ustalari (Xo'janiyoz Sayitniyozov, Matyoqub Jonibekov, B.Yoqubov va boshqalar) naqqoshlar tayyorlagan axtalar yordamida murakkab buyumlarni handasiy va islamiy naqshlar bilan to'ldirib bezaganlar. Bu maktablar o'zaro aloqada bo'lgan, ayrim usta kandakorlar o'z ijodlarida turli maktab usullarini qo'llagan.

O'zbek og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa ertak va dostonlarda temir va po'latdan yasalgan har xil keskich qurollar tilga olinadi. Shular ichida hozirgacha e'zozlanib kelinayotgan qurol — pichoqlar. Qadimiy tosh davrdan mis va temir davrigacha pichoqchilik rivojlanib kelgan. Yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari Navoiy, Bobur va boshqa o'rta asr adiblarining asarlariga ishlangan miniaturalarda tasvirlangan. Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa kabi obidalarda topilgan devorga ishlangan rasmlardan ham pichoq uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilganini ko'rish mumkin. Keyinchalik pichoqchilik kasbi rivojlanib, o'ziga xos maktablar yaratilgan. Qadimdan Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo maktablari mavjud bo'lgan. Tadqiqotchilar aniqlashiga qaraganda, O'zbekistonda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bo'lgan. Ular o'zining ishlash texnologiyasi, yasalish usuli, shakli, katta-kichikligi va bezaklar bilan o'zaro farq qiladi. Masalan, yasalish usuliga qarab chust (tus) pichog'i, Qorasuv pichog'i, Shahrixon pichog'i, Qo'qon pichog'i, Xiva pichog'i kabilarga bo'lingan. Ma'lumki, hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan uyushib, muayyan mahallalarda yashaganlar. Odamlarning kasbi nomi bilan mahallalar tanilgan. Hozirgacha katta-kichik shaharlarda yoki qishloqlarda pichoqchilik mahallasini uchratish mumkin. Chunki pichoq o'zbek oilalarida kesuvchi asbob sifatidagina ishlatilmay, butun mintaqada erkaklarning eng zarur ish quroli va hatto sarpo bezagi sifatida ham xizmat qilib kelgan. Bunday hol uning nihoyatda chiroyli bezalishini talab qilib, pichoqchilikni nozik naqshli san'at sohasiga ko'targan.

Andijon viloyatining Qorasuv qishlog'ida yaratilgan pichoq namunalari o'zining o'tkir tig'i va bejirim bezagi bilan O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Qorasuvlik pichoqsozlar o'tmishda qilich, xanjar, pichoq yasashda nom qozonganlar. Chust ustalari yasagan pichoqning dastasi hamda tig'i uzunroq bo'lib, tig'ining tashqarisiga, dastasining ichi ichkariga tomon qayrilgan va o'ziga xos bezatilgan. Xiva pichoqlari o'z shakllarining nozikligi, bezakdorligi, metalining mohirona qayta ishlanganligi, tig'i yuzining islmiy naqshlar bilan bezatilganligi, «qinbog'»ning badiiy naqshlari bilan mashhur. Shahrixon va Qo'qon ustalari yaratgan pichoqlari suqma sopli, tig'i katta qalin, ixcham, dastasi sarbastali, gulsiz yoki kamgullidir.

7-Mavzu:ZARGARLIK SAN'ATI

Reja:

- 1.Zargarlik san'atining rivojlaninish va taraqqiyoti**
- 2. Zargarlik maktablari va o'ziga xos jihatlari**
- 3. Zargarlik buyumlari bilan bog'liq xalq qarashlari**
- 4.Xulosa**

Zargarlik ham eng qadimiy zeb-ziynat yaratadigan hunarmandlik sohasi hisoblanadi. Zargarlik badiiy hunarmandchilik sohasining oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zebi-ziynat buyumlarini yasash kasbidir. Zargarlar bezak buyumlarni tayyorlashda quyish, bolg'alab yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), o'yib yoki bo'rttirib naqsh yasash, bosma, zig'irak, savodkori, qolipaki, shabaka kabi usullardan keng foydalanadi. Arxeologik kashfiyotlar juda ko'p sonda turli xildagi zargarlik buyumlarini fanga etkazib bergan. O'zbek zargarlari yaratgan mahsulotlar assortimenti ko'p va xilma-xil, ayrimlari nihoyatda noyob san'at dundonalaridir. XX asr boshlarida mahalliy ustalar yaratgan ajoyib bezaklardan turli xildagi ziraklar, uzuk, bilaguzuk, sochpopuk, bargak, zebigardon, bargoh, tillaqosh, tumor, bo'yintumor, paranjitugma, shingila kabilar zo'r mahorat bilan yasalgan.

Azal-azaldan zargarlik buyumlariga sirli hilqatdek qaralib qimmatbaho emas, balki har bir tosh o'z ma'nosi va ta'sir kuchiga ega deb hisoblangan. Har qaysi metall

juda kuchli himoya vositasi bo‘lib, ularning deyarli barchasi sohibini qo‘rqillabgina qolmay, balki shifobaxsh xususiyatlarga ham ega. Zargarlar ko‘pincha ishlov berish uchun oltin va kumushni tanlaganlar. Aholining kambag‘alroq qatlamlari mis yoki jez zargarlik buyumlari bilan qanoatlanishgan. O‘zining antiqa xususiyatlari — suvni tozalash, dezinfeksiyalash, organizmdagi har qanday salbiy o‘zgarishni qorayish orqali namoyon qilgani uchun avvallari, kumush hatto tilladan yuqori baholangan. Bundan tashqari, aynan kumush badiiy bezak sifatida foydalanishga mosroq va rang-barang matolar uyg‘unligida tiladan ko‘ra bejirimroq ko‘rinish hosil qiladigan metall hisoblangan.

Kumush Oy metali deb e’tirof etilardi. Oy esa, o‘z navbatida, ayol ramzi hisoblanib, kumush taqinchoqlarni taqqan ayol Oyning himoyasida bo‘lishiga ishonishgan. Shu bilan bir qatorda, o‘zining serjiloligi bilan oltin Quyosh ramzini anglatgan. Quyosh erkaklar belgisi bo‘lgani bois, ular aynan tillo buyumlarni xush ko‘rganlar. Himoya, uzoq umr, davlat va sog‘liqdan tashqari, qudrat va hokimiyat kabi jihatlarni tillaning xususiyatlari sirasiga kiritishardi. Shuning uchun oltin buyum egasi badavlat va qudratli ekanidan darak edi.

Keng tarqalgan toshlardan yana biri — bu, marjondir. Ayollarga serfarzand bo‘lsin degan niyatda aynan marjonli taqinchoqlarni sovg‘a qilishgan. Turmushi buzulishini xohlamagan yoki farzand ko‘rish umididagi ayollar marjon toshlarida bola ruhi yashirin ekaniga juda ishongan. Ba’zan shaytonlarni haydash uchun chaqaloq yotgan beshikka marjon toshlarini qo‘yishgan.

Feruza — qudrat va g‘alaba ramzi sanalib, erkak toshi bo‘lgan. Qizil va ko‘k toshlar marvarid va sadaf bilan rang-barang ko‘rinshiga ega bo‘ladi, ular xuddi kumushdek, Oy belgisi ostida bo‘lib, ayollar himoyachisi sanalgan. Marvarid ham xonadonga baraka olib kiruvchi tosh ramzi bo‘lgan. Hozirgi paytda O‘zbekistonning chekka qishloqlarida nozikdan to‘qilgan taqinchoqlar keng tarqalgan. Azal-azalda nozik toshlari yomon ko‘zdan asrovchi vosita bo‘lib, shomonlar liboslarining majburiy qismi hisoblanar edi. Bilakuzuklar, odatda, hayot davomiyligi va qo‘llarning tozaligini anglatardi. Yosh bolalarining bilaklariga hozir ham

ko'zmunchoqli bilakuzuklarni kinna va nazardan himoyalash uchun taqib qo'yadilar.

Qorong'i xonada yolg'iz o'zi olovda metallga ishlov berayotgan zargarning hunarini o'rganishni xohlovchilar hech qachon u qadar ko'p bo'lmagan. Zargarning o'zi ham oltin yoki kumushga ishlov berish chog'ida boylik ortirish haqida o'ylamaslik to'g'risidagi yozilmagan qonunga rioya qilardi. Darbadarlikda kakir-kukir asboblarni ko'tarib olib, buyurtma yig'ish bilan band odamlar ularning timsoliga aylanib qolgandi. Bundan tashqari, kek saqlamaslik va hamisha ko'tarinki kayfiyatda bo'lish ham zargarlik uchun muhim edi, zero, ko'ngilning yomon holati yasalayotgan taqinchoqda o'z aksini topishi mumkin edi.

Zargarlarni qaysidir ma'noda shomonlarga ham qiyoslashardi. Masalan, zargar befarzand yoki ruhiy xastalikka uchragan bemorlarga yordam beradi, deb hisoblangan. Zargarning uskunalarida go'yo sir bor edi, uning ustaxonasi ham sirli makon bo'lib, u yerga faqat yaxshi niyatlar bilan kirishga ruxsat etilardi. Natijada, zargarlarga nisbatan ikki tomonlama munosabat paydo bo'lgan. Ularni bir tomondan, qo'li gul usta sifatida e'zozlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar xohlasa har qanday yomonlik qo'lidan keladigan afsungardek ulardan xayiqishgan.

Ayrim taqinchoqlarning sirli ma'nolari xususida alohida to'xtalish lozim. Halqasimon taqinchoqlar, bilaguzuk, uzuk va doira shaklidagi ziraklar tashqi tahdidlar, ya'ni shaytonning ta'siridan himoyalovchi vositalar ma'nosini bildirgan. O'rta asrlarda vujudga kelgan «arabeka»ning ma'nosi esa judayam antiqa. Kelinchakning burniga taqiladigan bu taqinchoqning nomidan ham, arablardan olinganini bilish qiyin emas. Hozirda oila rishtalarini bog'lash ramzi sifatida barmoqqa uzuk taqiladi, ilgari esa arab va somiy xalqlarida bunday vazifani aynan burun uzugi bajargan.

Kelinchakning yuzidagi ro'molini tutib turishidan tashqari, arabeka ayolning nafas olish va xid bilishiga yordam beradi deb hisoblangan. Burun uzugi jonivorlarni yuvoshlashtirish uchun taqiladigan burun xalqasining prototipi ham bo'lgan.

Ziraklar ham ikkilamchi ma'noga ega edi. Bir tarafdin, bu taqinchoqlarning eshitish organiga taqilishdan katta ma'no anglanilsa, ikkinchi tarafdin, ziraklar ayol

quloqlarini turli g'iybat va insu jinslardan asrovchi vosita ham bo'lgan. Darvoqe, zargarlar haligacha iurli irim-sirimlarga ishonib, yo'qolgan zirakning sherigini yasab berish buyurtmasini qabul qilmaydilar. Aytishlaricha, yo'qolgan zirakning juftini yasab bergan kishining qarindoshlaridan biri vafot etishi mumkin ekan.

Sehrli xususiyatlarga ega zargarlik buyumlari qatoriga albatta tumorlar ham kiradi. Uning ichiga esa ozgina jun solib qo'yish mumkin edi. Odatda, jun xididan ilonlar va chayonlar qochardi, demak, bunday tumor insu jinslardan ham himoya qila olish xosiyatiga ega. Islom dini paydo bo'lganidan so'ng tumorlar ichiga Qur'on oyatlaridan biri yozilgan qog'oz solinadigan bo'ldi.

Tumurlarning shakllari turlicha edi — silindrsimon, dumaloq, to'rtburchak, ko'pburchak. Uchburchak shaklidagisi esa ko'proq tarqalgan. Bu bejiz emas. Aynan uchburchak insoniyat tarixidagi eng sirli shakl hisoblanib, ilohiy kuchlar bilan aloqada bo'lishni anglatardi.

Chaqaloq dunyo yuzini ko'rishi bilanoq unga uchburchak shaklidagi tumor taqib qo'yilardi. Kattalar uchun bo'yin, bel, ko'krak va hatto, qo'ltiqqa taqiladigan tumorlar yasalgan.

Aynan qo'ltiqning tagidan odamning joni chiqib ketadi, deb hisoblangani bois inson tanasining bu qismiga tumor taqish lozim sanalgan. Bundan tashqari, juft tumorlar, silindr shaklidagi tumorlar ham keng tarqalgan bo'lib, ular ayollar liboslarining ko'krak qismiga chap yoki o'ng tomonidan taqilardi. Tumorlar tinchlik, osoyishtalik va qut-baraka ramzi hisoblangan turli-tuman vositalar, nozik, marjon va boshqa taqinchoqlar bilan bezatilgan. Tumorga tushirilgan bezaklar ham o'ziga xos ma'noni anglatgan.

Zargarlar yasaydigan zeb-ziynatlarni foydalanishiga qarab barmoqqa, quloqqa, ko'krakka, burunga, qo'ltiqqa, chakkaga, peshonaga, boshga, sochga, belga taqiladigan bezaklarga bo'lish mumkin. Masalan, avvalgi asrlarda yasalgan Farg'ona vodiysi bezak ashyolaridan bo'yinga taqiladigan kundalli bargak, peshovuz, ayollar sochlariga taqadigan nuqra dumboq yoki tilla chachvon, peshonaga taqiladigan tillaqosh, peshona gajak, biqinga taqiladigan tavshadil yoki tumor, chakkaga taqiladigan tilla gajak kabilar shular jumlasidandir. Ular

O'zbekistonning maishiy turmushi naqadar rang-barang ekanligini ko'rsatadi. Bu fikrni tasdiqlash uchun yana bir misolni keltirish mumkin. Farg'ona zargarlari yaratgan uzuk, ziraklar turlarini eslaylik: uzuklardan afg'oncha uzuk, rumcha uzuk, xoji uzuk va hokazo. Ba'zi zeb-ziynatlar bir umr yechilmasdan taqib yurilgan. Zirak yoki isirg'a turlaridan kanozira yoki tatarcha zirak, turkistonzirak, turkistonbaldoq, zulukzira, qo'ng'iroqli zira, qashqarbaldoq, ko'zlik zira, oybaldoq, Farg'ona baldoq, Toshkent baldoq, arava baldoq, sharqiroq baldoq, anjir baldoq va hokazolar ham o'zbek xotin-qizlarining estetik jihatdan yuksak didli ekanligini namoyon qiladi. Boshqa zeb-ziynat buyumlarining turlari ham mahalliy aholining turmush madaniyati va dunyoqarashini aniqlashga yordam beradigan namunalardan. Zargarlikda bezak ashyolari o'yma va qolip usulida yasalib, turli rangdagi toshlar, marjon, shisha, sadaf kabilarni o'rnatish yo'li bilan bezatilgan. Jihozlar zargarlikda qimmatbaho tosh hisoblanib, o'zining chiroyliligi, rangining tiniqligi, bir xilligi, yaltiroqligi, tovlanishi, qattiqligi, turli xilda o'zgarishi kabi xususiyatlarga ega. Zargarlik san'ati ayniqsa, Buxoro va Xivada mashhur bo'lgan. Bu yerda hozirgacha tanilgan zargar ustalar ishlab, shogirdlar yetishtirmoqda. Ko'p shaharlarda zargarlik sohasi tiklanmoqda. Zamonaviy texnika bilan jihozlangan zargarlik fabrikalari keyingi vaqtlarda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon va boshqa shaharlarda paydo bo'lgan.

Buxoro zargarlik namunalari Zarafshon vohasida keying 50 yil mobaynida olib borilgan arxeologik qazilmalar paytida Zamon bobo va Quyi Mozorda topilgan.

Ushbu osori atiqalar Buxoro zargarlik maktabining asrlar osha sayqal topib, takomillashib, o'zining yuksak badiiy ko'rinishiga erishganidan dalolat beradi.

XIX asrga kelib Buxoro ustalari turli texnikalarda xilma-xil zargarlik buyumlari yaratishgan. Ayniqsa, zargar-naqqosh va kandakor-zargarlar yaratgan yuksak darajadagi buyumlar Buxoro zargarlik maktabiga asos bo'ldi.

Usta zargarlar, asosan, kumushdan, ba'zidagina tilladan buyum yasashgan. Zargarlar metallarni yoqut, zumrad, sapfir kabi qimmatbaho toshlar bilan birgalikda, dur, firuza, aqiq, la'l, yashma, marjon va sadaf kabi yarim qimmatbaho to'q rangli

toshlar va suyaklar bilan bezashgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, rangbarang shishalarni marjon va munchoq bilan qo‘shib ishlatishgan.

Zargarlarni buyum xiliga qarab, tapishsoz, gulbotsoz, uzuksoz, halqasoz deb atashgan. Metallga ishlov berish usullari ham xilma-xil bo‘lgan, ya’ni oymakorlik, cho‘kichlash, kandakorlik, haqqoqi, qadama, shabaqa, to‘qima to‘rsimon, bosma naqsh solish. Ustalar tilla suvi berish, ya’ni zarhallash, qadama naqsh yasash, qoraytirish, emallash texnikasida ham yuksak mahoratga ega bo‘lganlar.

XIX asr Buxoro zargarlari texnikasida xoiskori- filigran va sim to‘r alohida ajralib turadi. “Shabaqa” uslubida yaratilgan yilla dastpona panjarasimon ko‘rinishi bilan kishi e’tiborini o‘ziga tortadi. Boshqa bir taqinchoq turi “qatlama” la’l toshini terish yo’li bilan yasalgan. Undagi “bozbandcha” simto‘r uslubida mohirona bajarilgan. Ko‘plab bozbandlar ichida duo oyatlari bitilgan qog‘oz joylashtirilgan. Ba’zi tumorlar ichiga mastika to‘ldirilgan, yuza qismiga go‘zal naqshlar bilan Qur’on oyatlari yoki “Alloh”, “Bismilloh”, “Muhammad” so‘zlari bosma uslubda bitilgan.

Taqinchoqlar orasida ko‘krak tumor- “tapishidil” yurak shaklida xoiskiri (filigran) uslubida yasalgan bo‘lib, unga uchta yoqut toshi qadalgan.

Halqa ziraklar ichida buxorolik zargarlar yasagan “Xolak”, “Barg”, “Muhammadiy”, “Shabirma” turlari juda keng tarqalgan. Ular 750 probali oltindan bosma, simto‘r, o‘rama, xoiskori, qadama uslublarida yasalib, yoqut, marvarid toshlari qadab bezatilgan. “Shibirma”dagi yoqutlar soniga qarab “yak qirota” deb atalgan.

Buxoro zargarlari “halqai kundalsozi” uslubida ham ziraklar yasashadi, bunday halqalar panchpoy deb ham ataladi. Aylana shaklidagi asosiy qismga uchta uzun va ular orasida ikki qator kalta oyoqchalar osilgan bo‘lib, ular marjon va kumush zig‘irak yoki la’l ,zumrad toshlari va oltin zig‘iraklardan yasalgan.

Ayollar taqinchoqlari orasida peshona, chakka, sochga taqiladigan buyumlar o‘ziga xos ko‘nishga ega. Ularning ko‘p tarqalganlari “Mohitillo” yoki “Bibishak”. Oysimon shaklga ega bu taqinchoqlarga marjon yoki marvaridli 8 tadan 16 tagacha bo‘lgan oyoqchalar osilgan bo‘lib, asosiy qismi bosma uslubida ichiga

mastika to'ldirib ishlangan bo'ladi. Ikki quloq oldiga osiladigan "tilla naycha"lar zulf yoki "gajak" deb ham ataladi. Chunki ularning ichidan ayol sochining bir tutami o'tkazilib, ipak ip bilan biri ikkinchisiga bo'langan bo'ladi.

Bodomsimon shaklli "gajak" quloq ustidan o'rnatiladi. Kumushdan yasalgan gajaklar, quloq tepasidan o'tkaziladi. Uni osish uchun yuqori tomoniga ikki qator kumush simni bir-biriga burab arqonsimon holgakeltiriladi.

Peshonaga taqiladigan taqinchoqlar "tillabarg" hamda "boloabro'" deb ataladi. To'g'ri chiziqli shaklda joylashtirilgan kvadrat plastinkalardan 15tasi bir-biriga bog'lanadi, pastki qismiga esa ikki qator pilakchalar osilgan hamda firuza, yoqut, marjon toshlari bilan bezatilib, zarhal bilan qoplangan bo'ladi.

XX asr boshida Buxoroda 400dan ortiq zargar faoliyat ko'rsatgan. Ularning 50dan ortig'i ijodiy izlanishlari tufayli haqiqiy zargar darajasiga erishganlar, qolganlari ular yaratgan shakldan ko'chirib buyum yasaganlar. Eng mohir 20 nafari esa, saroy ustasi darajasiga erishib, "qushbegi bolo", ya'ni yuqori qushbegining arkoni davlatidagi maxsus o'rdasida saroy uchun buyumlar yasaganlar. Saroy uchun tayyorlangan qanddon, qadah, sharobdon va shamdonlar Tursunjon, usta Muxtorjon, usta Sadriddin pochcho, usta Mir Fuzayl va Lazgin, kavkazlik usta Kapaevlar tomonidan yasalgan.

XIX asr Buxoro zargarlari orasida uzuksoz, bilakuzuksoz, zebigardon hamda boshqa taqinchoqlar boyicha usta Kamoliddin, usta Nasriddin, usta Kordsharif va usta nabilar eng mashhurlari sanaladi.

Buxoro zargarlarining ishlari shaklan mukammalligi va mazmun uyg'unligi, naqshin bezaklarining buyumga mosligi va mutanosibligi, tanlangan ranglarning uyg'unligi va mazmundorligi bilan o'zbek zargarlik san'atiga o'ziga xos maktab sifatida alohida ajralib turadi. Buyumlarning soda va puxta, qadimiy davrlarda shakllangan xillari o'zining qimmatli badiiy xususiyatlarini ko'proq saqlab qoldi, shu sababli ushbu buyumlarga bo'lgan katta talab tasodifiy emas.

Xorazm vohasi o'zbeklarining an'anaviy taqinchoqlari o'zining tuzilishi jihatidan O'zbekistonning boshqa hududlarida yashovchi o'zbeklar taqinchoqlaridan farqlanadi. Bezaklardan foydalanishga ehtiyoj kuchaya

boshlangach, ularning turlari alohida mazmun –mohiyat kasb eta borgan. YA'ni taqinchoqlar xar xil turlarga bo'linib, insu -jinslar, kasalliklardan asrovchi, turli tashqi ta'sirlardan muhofaza qiluvchi, shuningdek, jamiyatda kishining mavqeini belgilovchi vosita vazifasini bajara boshlagan. Bunday taqinchoqlar peshona, bo'yin, quloq, burun, qo'l va oyoq panjalariga taqilib, ular ko'zli yoki ko'zsiz bo'lib, xat va naqshlar bilan bezatilgan.

Taqinchoqlar dekorativ elementi sifatida Xorazm vohasi liboslarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular bezak sifatida alohida qadrlangan. Taqinchoqlar dastlab ma'lum ramziy ma'no anglatib, vaqt o'tishi bilan ularning bunday xususiyatlari esdan chiqib, faqatgina bezak sifatida qo'llanila boshlagan. Faqat Xorazm vohasiga tegishli taqinchoqlar bitta ansamblni tashkil etib, ularni taqilish turiga qarab quyidagi guruxlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. ***Boshga taqiladigan taqinchoqlar*** - bosh kiyimlarga mustaxkamlangan. Boshni himoya qilish va bezak sifatida taqilgan. Bu taqinchoqlar katta hajmli bo'lib, butunlay bosh kiyimni o'rab turgan. Ular bosh kiyim – taxyaning peshona bo'ylab, butun atrofini (**tanga-do'ziy**), ba'zan uni tera qismi bilan birga qoplab turgan (**taxyado'ziy, manglaydo'ziy**). Peshonaga taqilgan (**o'q-yoy-do'ziy, qanot osma**) taqinchoqlar Toshkent “tillaqoshi” taqinchog'ini eslatadi, unda qushning qanot yoyib turgani tasvirlangan. Shu bilan birga boshning ensa qismiga ham bosh kiyim ustidan taqinchoqlar taqilgan (o'q-yoy-do'zoy). Bu kabi taqinchoqlar qadimgi jangchi ayollardan saqlanib qolgan.

2. Shuningdek quloqlariga va chakkaga ham taqinchoq taqib yurishgan. Chakka taqinchoqlari (**bodomoy, manglaydo'ziy**) ko'krak va bosh kiyim taqinchoqlari bilan birga bittaguruhga mansub bo'lgan. Xorazmda ayollar quloqqalariga ikki xil zirak taqib yurishgan (isirg'a, halqa), ular shakliga ko'ra farqlangan. Xorazmda ayollar burniga ham taqinchoq taqib, u ba'zan halqaning uchinchi nusxasi hisoblangan.

3. Ayollar ko'kragiga asosan ikki xil ko'rinishdagi taqinchoqlar taqishgan. Ular bo'yin orqali taqilib kiyim ustini bezab turgan. Yana bir ko'rinishdagi taqinchoqlar katta hajmda qimmatbaho tosh qadalgan taqinchoqlarni

kiyimlarga ilib qo'yishgan (sadafo'ziy, duodo'ziy, davocha). Bel taqinchoqlari o'ziga xos martabani anglatgan (kalitbog'i) .

4. Xorazmda ayollar qo'llariga taqinchoq taqishlari shart hisoblangan (bilozik, yuzik). Ular mis, jez, kumush va oltindan yasalib, qimmatbaho toshlar va o'yma naqshlar bilan ishlov berilgan.

5. Ayollar sochlariga sochpopuk taqishlari O'zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Xorazmda yosh qizlar sochlarini shu kabi taqinchoqlar bilan bezaganlar.

6. Xorazmda erkaklar kiyimlarining qo'shimcha detallari belbog', qilich va hanjarlardir. Bu kabi buyumlar qimmatbaho toshlar va metallar bilan ishlov berilgan. Qo'llarga kumush va oltindan uzuklar taqishgan, ular hukmdorlik ramzi hisoblangan.

Umuman olganda, o'rganilayotgan davrda vohada taqinchoqlarning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ular ko'rk, bezak, magik himoya, haloskorlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Taqinchoqlar shakllar, naqshinkor bezaklar va ramziy belgilarda ajdodlarimizning etiqodi, atrof-muhit haqidagi mifologik qarashlari, tabiat va moddiy olam bilan bog'liq tasavvurlari o'z ifodasini topgan.

Qoraqalpoq ayollarining XIX asr ohiri XX asr boshlaridagi zargarlik taqinchoqlari shakli , tayyorlash texnikasi, vazifasiga ko'ra xilma-xil va boydir. Ularda turli davrlar va xalqlarning katta badiiy tajribasi jamlangan. Ayollar libosi va zargarlik buyumlari qoraqalpoqlarning yaxlit uslubiy majmuasini va ayollarning estetik-poetik timsolini ko'rsatadi. Bu taqinchoqlarda xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli va yosh bo'yicha tabaqalanishiga qat'iy amal qilinganligi ko'rinadi. Taqinchoqlarning qiz bolaning bolalikdan balog'at sari ketishida murakkablashishi , qariyotganida taqadigan taqinchoqlarining esa soddalashuvi kuzatiladi. Qoraqalpoqlarning urf-odatlar va an'analari zaminida ham zargarlik buyumlar alohida o'rin tutadi.

Xususan, qizlarning taqinchoqlari yomon ko'zlardan asrovchi tumorlari va munchoqlarning ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq qizlarining to'y

saruposida ayollar taqinchoqlariga juda jiddiy e'tibor beriladi. Bu qat'iy urf-odatga aylangan. Bunda yosh kelinchakni ko'z tegishidan asrash xaqidagi diniy marosimiy tasavvur yetakchilik qiladi. Deyarli barcha taqinchoqlar yomon ko'zdan asrovchi vazifani o'tagan. Bunda ham qizlar va onalarga nisbatan "sharqona" qarash muhim o'rin tutadi.

Albatta, bunda ota va erning boyligi hamda ijtimoiy axvoli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bezaklar kelinning peshona va chakkasini to'la qoplab, ularni ko'z, suq va afsunlardan "himoya qiladi". Faqat yonoqlar ochiq qoldiriladi. Ularga qo'shimcha burun sirg'asi, mayda shokilalardan iborat "halqopli sirg'a" kabilar taqilgan. Ular ham kelin yuzini to'sib turgan. Shu asosda yangi ke-linning taqinchoqlari kishi nazarini o'ziga tortib, uni yomon ko'zlardan asrovchi o'ziga xos parda vazifasini o'tagan. Belga taqiladigan "sau-kele" belbog'i ham alohida e'tiborni tortadi. Beldan uzunasiga pastga osilib turadi (tovus dumiga o'xshab). Unda zargarlik buyumlari ishlatilmaydi. Bunda taqinchoqlar o'zining oddiy vazifasidan farqli o'laroq, marosim bilan bog'liq ma'no ham kasb etadi.

Ko'krakka taqiladigan "xaykal" (yirik tumor) taqinchoqlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Bezaklarning ramziy jihatini to'la tavsiflashga to'xtalib o'tirmasdan ta'kidlash joizki, qoraqalpoq zargarlik san'atida yomon nazardan asrovchi ramzlar xoch ko'ri-nishidagi "shar tuyme" (quyosh va olov qudrati ramzida) hamda "anshik" - yonda osib yuriladigan antromorf tasvir ko'rinishida talqin etiladi (uslublashtirilgan ayol tanasi- Ona Xudo).

Bulardan tashqari, taqinchoqlarga o'ziga xos bezak shakli berilgan. U ayollar libosidagi boy yorqin kashtada estetik ma'no anglatgan. Ular libos qismlari fonida mayda tikilgan kashtadagi qandaydir antiteza bo'lib ko'rinadi. Zargarlik buyumlari qulayligi, shakli yirikligi va rangining "bo'g'iqligi" bilan ajralib turadi. Kashtalar kompozitsiyasining soddaligi va aniqligi, betakror qadimiy cho'l motivlari aks etganligi va ranglarga boyligi bilan hayratlantiradi. Umumiy badiiy uslubga bo'lgan intilish va qoraqalpoqlarning urf-odatlari bilan bog'liq taqinchoqlar, liboslar

haqidagi xalqona-poetik tasavvurlar bu san'atlarni bir-biriga bog'lovchi vositaga aylangan.

Qoraqalpoqlarning marosim taqinchoqlari turkman, o'zbek, qozoq xalqlari taqinchoqlari bilan shaklan o'xshashib ketadi.

Shu bilan birga, qoraqalpoqlarning ko'pgina zargarlik buyumlari o'zining badiiy uslubiga ko'ra boshqa qardosh xalqlar taqinchoqlaridan tubdan farq qiladi. Xususan, qoraqalpoklarning "shar tuyme" bo'yin taqinchog'i, belboqqa osib yuriladigan "anshik, "tobelik" bosh kiyimi, "kiran" taqinchog'i, "ongirshe" qizlar taqinchog'i majmuasi kabilar boshqa xalqlarda umuman uchramaydi.

Taqinchoklar ayollar hayotining turli bosqichlarini bildiradigan asosiy ramziy belgi vazifasini bajaradi.

8-mavzu: XALQ ME'MORCHILIK SAN'ATI

Reja:

- 1. Memorchilik san'atining rivojlanish tarixi**
- 2. Me'morchilik maktablari**
- 3. Memorchilik san'ati bilan bog'liq naqshlar tasnifi**
- 4. Xulosa**

Xalq amaliy san'ati, shuningdek, me'morlik san'ati tarixi insoniyatning uzoq o'tmishidan boshlangan. Arxeologik qazilmalarning ko'rsatishicha, badiiy ijod mahsuli bo'lgan ilk buyumlar ham, insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan turarjoy vazifasini o'tagan konussimon poxol chaylalar ham tosh asridayoq paydo bo'lgan. Aholining bir qismi o'troqlasha boshlagach, tosh, guvala, paxsa va sinchli uylar qurila boshlandi. Asta-sekin murakkab arxitektura komplekslari — to'g'ri to'rtburchak va aylana tarhli qal'a — shaharchalar paydo bo'ldi (Sopolli tepa, Qizil tepa, Bandixon tepa, Qo'y qirilgan qal'a kabi — III asrlar).

Miloddan avvalgi IV — milodiy IV asrlarda O'zbekistonda mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'onlar — shaharchalar bunyod etildi (Dalvarzin tepa, Tuproqqal'a kabi). Arxeologik qazilmalardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrlarda qurilgan qal'alar monumental san'at asarlari bilan bezatilgan. Bu holat me'morlik san'ati bilan bir qatorda tasviriy san'atning rivojlanib borganligidan

xabar beradi. Bolalik tepa, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa haykallari, Ayritomdan topilgan bino frizlari (I—II asrlar) va budda haykallarining qoldiqlari fikrimizning dalilidir.

VI—VIII asrlarga kelib, O‘zbekistonda ko‘shk, qo‘rg‘onlar: shaharlarda ibodatxona va saroylar qurildi. U davr binokorligida loydan tashqari, yog‘och, ganch o‘makorligi qo‘llanganligi ma’lum. (Afrosiyob, Varaxsha, Yumaloq tepa qoldiqlari).

Arablar O‘rta Osiyoni zabt etgach, (VII—VIII) mavjud arxitektura yodgorliklari, tasviriy san‘at asarlari vayron qilindi, budda ibodatxonalari o‘rniga masjidlar qurildi. Arab istilyosiga qadar O‘rta Osiyoda imoratlar turli haykal barelef, jonli mavjudotlarning tasviri bilan bezatilar, ziynatlanar, me‘morlik san‘atining boshqa turlari bilan uyg‘unlashib, nodir san‘at asarlarini vujudga keltirar edi. Bunga, jumladan, Ayritom va Bolalik tepa (Surxon vohasida), Tuproqqal’a (Xorazmda), Varaxsha (Buxoro yaqinida) kabi qadimgi shahar va qazilmalardan topilgan yodgorliklar yorqin misol bo‘la oladi... Islomiyatdan keyin imoratlar haykallar va jonli mavjudotlarning tasviri bilan emas, balki turli geometrik shakllar bilan ziynatlanadi, o‘ymakorlik va naqqoshlik san‘atlari yetakchi bo‘ladi.

IX—X asrlarga kelib, arxitektura va amaliy bezak san‘atida qayta jonlanish boshlandi. Binolar, asosan pishiq g‘isht bilan quriladi. Monumental binolarda toq-gumbaz konstruksiyalari keng qo‘llaniladi. XII—XIII asr me‘morlik san‘atida an‘anaviy ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan birga maxsus g‘isht terish usuli bilan naqsh hosil qilish san‘ati paydo bo‘ldi. XII—XIII asrlarda sopolga sir berish ixtiro qilinib, monumental binolarning devorlari, gumbazlari koshin bilan ziynatlandi.

O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar bosqini daf etilgach, XIV asrdan me‘morlik san‘ati yana o‘zining taraqqiyot yo‘liga tushib oldi. Bu davrda ayniqsa yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik san‘ati rivoj topdi. (Samarqanddagi «Shohizinda» kompleksi, Shahrisabzdagi «Oqsaroy» va boshqalar).

Me‘morlik san‘atining taraqqiyoti tufayli yirik shaharlarda arxitektura ansambllari vujudga keldi. Samarqanddagi Shohizinda, Registon, Buxorodagi Labihovuz ansambllari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, musulmon Sharqida, binokorlikda «arxitektura ansambli» prinsipi kelib chiqqan. Shu prinsipga ko'ra, qadimda madrasa qurilgan joyda albatta xonaqoh qurilgan. Asta-sekin ular yonida maqbaralar paydo bo'lgan. Bu haqda akademik Y.G'.G'ulomov shunday yozgan: «XV asr boshida «Go'ri Amir» maqbarasi bir-biriga bog'lanib solingan uchta katta bino — madrasa, xonaqoh ham maqbaralardan iborat katta arxitektura ansamblining bir qismini tashkil etgan».

XIV — XV asrlar xalq amaliy san'ati, shuningdek, me'morlik san'ati taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan davr sifatida xarakterlanadi. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi, Masjidi Kalon, Samarqanddagi Bibixonim — Jome masjidi, Go'ri Amir, Shohizinda kabi tarix obidolari XIV—XV asrlar me'morlik san'atining ajoyib namunalari. Bu dalillar xalq ijodiyotiga oid manbalarda alohida ta'kidlanadi. XV asr O'rta Osiyo xalqlari san'ati taraqqiyotining muhim va sarmahsul bosqichidir. Bu bosqichda me'morchilik, tasviriy san'at, xattotlik, muzika va boshqa sohalarda o'lmas obidalar yaratildi.

Asrlar davomida odamzod aql-idrokini lol qoldirib kelayotgan qadimiy me'moriy obidalarni bunyodga keltirgan xalq ustalari geometriya, matematika ilmlariga asoslanib imorat chizmalarini tayyorlaganlar, loyihalar asosida bino qurganlar.

«Qadimiy me'morchiligimiz geometriyasi» kitobida ko'rsatilishicha, qadimiy me'morchilik yodgorliklarida gumbaz, aylanma zina, peshtoq, ravoq, muqarnas (stalaktit) va boshqa sirtlar mavjud bo'lib bunday murakkab qurilmalarni bunyod qilish matematik hisobni, geometrik aniqlikni talab etadi. Bu masalalar Ulug'bek astronomiya maktabida muhim rol o'ynagan yirik matematik va astronom olim G'iyosiddin Jamshid al-Koshiyning «Miftohul-hisob» (hisob kaliti) risolasida o'z aksini topdi. G'iyosiddin Koshiy risolaning arxitekturaga bag'ishlangan bobida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari me'morchigida keng tarqalgan arxitektura shakllari va konstruksiyalari, arklar, qubbalar, muqarnaslarni yasash va o'lchash usullari bayon etilgan.

Bu sohalarni egallagan xalq ustalari, me'morlari asrlar davomida sinovdan o'tgan tarx va konstruktiv asoslardan foydalanib kelgan. Natijada xalq me'moriy

an'analari yuzaga kelgan, ayrim imoratlar san'at durdonasiga aylangan. Xalq me'morligi insonning nafaqat ijtimoiy-maishiy va ma'naviy talablarini qondirish, balki uning hayot xavfsizligini ham ta'minlab kelgan. Shuning uchun har bir hudud me'morligi tarh, tarz, kompozisiya jihatidan bir-biridan farq qiladigan an'analarga ega. Xalq me'morchilik an'analari XIX asr oxiri - XX asr boshlarida qurilib, hozirgacha saqlanib kelgan turarjoylarda yaqqol seziladi.

Jumladan, Buxoro uylari ikki-uch (durun - ichkari, berun - tashqari va xo'jalik) hovlidan topgan. Asosiy yashash xonalari yozgi va qishkiga bo'linadi. Yozgi xonalar oldida baland ayvon bo'lishi odat bo'lgan. Hovli kompozitsiyasi bir-biriga mutanosib joylashtirilgan baland ayvon va ayvonchalar hamda ularning xushbichim ustunlari bilan boyitilgan. Xona kompozitsiyasida shohnishin - mehmon o'tiradigan bo'linma dididan bezatilgan. Boy xonadonlarda mehmonxonalar yon devorlari poldan shiftgacha ko'tarilgan tokchalarga ega bo'lgan. Ularning yuqori qismi ravoq shaklida bo'lib, kosasimon sharafalar bilan bezatilgan. Tekis yuzali devorlar ham zanjira - rutalar bilan bo'linmalarga taqsimlangan. Ular ichiga nihollari hamma tomonga yoyilgan, gullari qiyg'os ochilgan rang-barang guldastalar ishlangan.

Samarqand turarjoylari ham darun va berun (ichki va tashqi) hovlilardan tashkil topgan. Samarqandda ikkinchi qavatdagi ayvonlar ko'chaga qaratilgan holda ham uchraydi. Xona ayvon yoki dahliz bilan «G» harfi shaklida, uzunasiga, yonma-yon tarzda birlashib, turli boy mujassamotlar tashkil qilgan. Mehmonxona ko'proq tashqi hovlida bo'lib, boy badiiy bezakka ega bo'lgan. Xona to'ridagi devor uchun bo'linmaga ajralib, ko'pincha o'rtada tokchaband, ikki yonida o'rin o'rtada tokchaband, ikki yonida o'rin ko'rpa uchun taxmon joylashtirilgan. Xona yon devorlarida katta-katta tokchalar toq sonda o'rnatilgan. Hovliga qaragan devorda xona kattaligiga qarab ikki yoki uchta darcha nazarda tutilgan. Ular serhasham o'ymakori bog'dodi eshiklar bilan hovli tomondan to'sib qo'yilgan. Darchalar oralig'ida katta-katta tokcha bo'linmalari mavjud. Xona shifti ko'pincha qabza uslubida bo'lib, vasvasa va to'sinlar rang-barang o'simliksimon naqshlar bilan to'ldirilgan.

Xiva turarjoylarida hovli kichikroq bo‘lib, asosiy qismi katta (ulu) ayvon va kichik (ters) ayvon bilan yopilgan. Ayvonlardagi katta va kichik o‘ymakor yog‘och ustunlar mayda naqshlar bilan bezatilgan, marmar kursilarga o‘rnatilgan. Xona havosi almashuvini ta‘minlash uchun ulu ayvon xonadan ancha baland qilib qurilgan. Katta ayvon o‘zining joylashishi, o‘ymakor baland ustunlari bilan hovli kompozitsiyasini bezab turadi. Xiva uylarida xona devorining yuqori qismiga devor yuzasidan bo‘rtib chiqqan tokchalar bir chiziqda joylashtirilgan. Ular yuzasi nafis ravoqchalarga ega.

Farg‘ona turarjoylari o‘zining simmetrik tarhi va tarzi bilan ajralib turadi. Bu yerda ikki xona o‘rtasida dahliz joylashtirilgan, ular ko‘pincha hovli tomondan uzun ayvon bilan birlashtirilgan bo‘ladi. Mehmonxona o‘zining serhasham bezagi bilan qolgan xonalardan farq qiladi. Dahlizda turli tuzilishdagi bezakli mo‘ri o‘rnatilgan.

Toshkent turarjoy me‘morligida ham tashqi hovli uylari ikki qavatli qurilgan. Ikkinchi qavat markazida shiypun nazarda tutilgan. Shiypun yonidagi xonalar uchun usti berk, atrofi ochiq hovli vazifasini bajargan. Toshkent xalq turarjoy me‘morligida dahliz yoki ayvon bir xona bilan yonma-yon yoki ikki xona oralig‘ida, ikki uch xona burchagida bo‘ladi. Bu yerda qashqarcha ayvon qo‘llangan. Mehmonxona ko‘pincha tashqi hovlining ikkinchi qavatida bo‘lgan. Intereri o‘zining ichki hashamatli bezagi bilan qolgan xonalardan ajralib turgan. Xona to‘ridagi devor ko‘p hollarda uch bo‘linmadan tashkil topgan. Ulardan o‘rtadagi yoki ikki chetidagisi taxmon bo‘lishi mumkin. Xona yon devorlaridagi bitta yoki ikkita bo‘linma mayda tokchaband qilingan, qolgan bo‘linmalari katta-katta tokchalarni tashkil qiladi. Tokchalar ichiga binafsha va pushti rangda guldastalar ishlangan.

O‘zbekiston shahar va qishloq xalq me‘morligida imorat devorlari guvala, paxsa va yog‘ochli sinchdan quriladi. Yakkansinchli va qo‘shsinchli devor mustahkam bo‘lib, uning mag‘zida taxmon va tokchalar o‘rnatilgan. Xonada tokchali devorlarning soni qo‘shsinchli devor soni bilan belgilanadi. Shuning uchun Samarqand uylari xonalarida ikki devor, Buxoroda - bir yoki ikki, Farg‘ona va Toshkentda to‘rt devor qo‘shsinchli bo‘ladi. Tokchalar xo‘jalik buyumlarini saqlash, taxmonlar ko‘rpa-to‘shak va sandiqlarni joylashtirish imkonini beradi. Ular oppoq

ganch hoshiyali bo‘lib, mayda nafis naqshlar va ular zamiridagi qizil, ko‘k, sariq ranglar xonaga o‘ziga xos go‘zallik bag‘ishlagan.

O‘zbekiston tog‘ hududidagi turarjoylari ham o‘ziga xos me‘moriy an‘analarga ega. Tog‘ning qiya yon bag‘rida joylashgan qishloqlar manzarasi uzoqdan ko‘p qavatli yaxlit kompozitsiyali uyga o‘xshab ketadi. Uylarning tuzilishi, loyihasi ko‘proq o‘sha joy tabiiy iqlim sharoitiga va landshaftiga bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli har bir viloyat tog‘ vohasi va daralarda qurilgan uylar mujassamotini bir necha turga bo‘lish mumkin.

Jumladan, Nurota tog‘ qishloqlari xalq me‘morligida pillapoya tuzilishidagi yoki ustma-ust qurilgan ikki qavatli uylar, kam nishab maydonda bir qavatli qurilgan uylar asosiy o‘rin tutadi. Qashaqadaryo tog‘ turarjoy binolarida sovuq ob-havosidan himoyalaniş maqsadida yashash xonalari, asosan, ayvon (ba’zida ikki, uch yoki hamma tomoni berk bo‘lgan peshayvon) atrofida joylashgan. Ikkinchi qavatda uch tomoni xona bilan o‘ralgan kichik hovlichalar tashkil etilgan. Surxondaryo tog‘ uylari ko‘pincha cho‘zinchoq shaklda qurilgan, old tomonidan uzun ayvonga ega bo‘ladi. Birinchi qavat tomi ikkinchi qavat uchun hovli vazifasini o‘taydi. Qashqadaryo va Surxondaryo tog‘li joylari xalq me‘morligida qishki xona kirish eshigi yonidagi devor oldi yana bir devor bilan to‘silgan. Ikki devor oralig‘ida o‘choq nazarda tutilgan. Farg‘ona, Toshkent viloyati tog‘li hududlarida ham o‘ziga xos xalq me‘morligi an‘analari rivoj topgan, jumladan, uylar tarhida tomonlari teng katta xonalar ko‘p uchraydi. Tog‘li joylar xalq me‘morligida qurilish materiali sifatida sinch, paxsa, guvala bilan birga tosh devor ham ishlatilgan.

“Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik yubeleyiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish”, “Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash”, “ Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilli gini nishonlash», «Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyor- garlik ko‘rish va uni o‘tkazish», «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludi- ning 1130 yilligini nishonlash», «Burhonidsin al-Marg‘inoniy taval- ludining 910 yilligini nishonlash», «Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligini nishonlash», «Abduxoliq G‘ijduvoniý tavalludining 900 yil- ligini nishonlash», «Qarshi shahri- ning 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni

o'tkazish», «Marg'ilon shahrining 2000 yilligi- ni nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish» to'g'risidagi hukumat qarorlari asosida tuzilgan dasturlar shular jumlasidandir. Hukumat qarorlari asosida tuzilgan dasturlarni 1991-2006 yillarda davlat byudjetidan ajratilgan katta mablag'larni «Meros» davlat dasturi bosqichma-bosqich amalga oshirishi natijasida olamga mashhur Samarqanddagi — Amir Temur maqbarasi, Registon ansambli, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, Hazrati Xizr masjidi; Buxorodagi — Somoniylar maqbarasi, Kalon masjidi, Mir Arab madrasasi, Ark devori; Shahrisabzdagi - Oq saroy peshtoqi, Dorus-Saodat majmuasi; Xivadagi - Pahlavon Mahmud maqbarasi, Tosh hovli; Ko'qondagi — Xudoyorxon o'rdasi va boshqa obidalar ta'mirlanib, kelajak avlodlar uchun saqlab qolindi. Shu bilan birgalikda, Samarqandda Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy, Farg'ona va Quvada Ahmad al-Farg'oniy me'moriy majmualari, Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykal-lari, Marg'ilonda Burhoniddin al-Marg'inoniy maqbarasi kabi muhagham zamonaviy yodgorliklar barpo etildi.

Aynan shu davrda tarixiy haqiqat tiklandi, O'zbekistonning boy madaniy va tarixiy merosi dunyoga tanildi. 1990 yilda Xivadagi «Ichon-qal'a», 1993 yilda Buxoro, 2000 yilda Shahrisabz, 2002 yilda Samarqandning tarixiy markazlaridagi yodgorliklari «Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati» (YUNESKO)ga kiritildi.

Hozirgi kunda Qadrshining 2700 yilligini nishonlash arafasida Ko'kgumbaz masjidi maxmui. Odina masjidi va sardobasi. Bekmir, Abdulazizxon, Qilichboy madrasalari, o'rta asr ko'prigi va boshqa madaniy meros obekglari tamyasshshi va tiklavdi.

Qarshi namozgoh magjnti shahar qo'rg'onidan yarim chaqrsyam ueoqlikda joylashgan va kuk rashln pgmbazi uzoq- uzoqlardan ko'rnnnb turshi. Shu bois- dan, inshoot xalqtoavoivshvn Ko'kgumbaz jome' masjiln nomn bnlan ata- lib kelgan. Bnno hnjrnn 999/1590- 1591 yillaraa qurilgan.

Ko'kgumbaz jome' magjnli o'rtada murabba' shaklida qurnlg'an baland gumbazli xyunaqrq va nkki tomoniga qagor tushgan pshpli anvogskadaan ibo- rat. Obidaning

umumnn uzunligi 38,25 m. Shimatn-g'arbny taraflagisi 14,0 m, janubi-sharqiy tomondagisi 14,6 m. Yon tomondagi ayvonlarga aso- siy xona - xonaqohdan o'tish yo'lakla- ri orqasi kiriladi.

Ko'kgumbaz jome' masjidida o'z dav- rida go'zal naqshlar bilan bezalgan. Uning ichki tomonidagi koshinlar tur- fa rangda. Masjidning firuza gumbazi tayanchi bilan XIX asrning o'rtalarida o'pirilib tushgan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bino bir necha marta ta'mirlanganligi ma'lum bo'ldi. 1996 yilda esa uning qayta tiklangan gumbazining firuza rangli koshin qop- lamasi ta'mirlandi.

Namozxonlarga qulayliklar tug'dirish maqsadida 2005 yilda yurtboshi- miz tashabbusi va bevosita ishtirokida masjid hovlisi atrofiga, avvalgi devor o'rnida 36 ta yog'och o'ymakor ustunli ko'rkam ayvon va kirish peshtoqi qurildi. Yodgorlik oldida esa muhgasham maydon, keng yo'laklar va katga bog' barpo etildi.

Shahardagi tarixiy yodgorliklardan yana biri Odina juma jome' masjidida XIV asrning 80-yillarida qurilgan. Muarrixlarning ma'lumotlariga ko'ra, Sohibqiron Amur Temur 1385-1386 yillarda Qarshida qishlaganda, uning markazida yirik masjid bunyod ettir- gan.

Qarshi shahri Registoni majmuiga kirgan me'moriy inshootlardan eng yirigi hisoblangan masjidning uzun- ligi 50 metr, eni 40 metrga teng. Mas- jid ichidagi ibodat joylari keng, ba- land, tepasi kichik gumbazchali, g'isht ustunlar bir-biriga ravoqlar orqali tutashtirilgan. Uning g'arbiy (qibla) tomonida katta, mahobatli mehrob bo'lgan.

XIX asrlar chegarasida Qarshida 20 ta madrasa mavjud bo'lgan. Ammo hozirgacha ulardan Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy va Bekmir madrasalarigina saqlanib qolgan.

Xo'ja Abdulaziz madrasasi qarshilik Xo'ja Abdulazizboy tomonidan 1909 yilda qurdirilgan. Kirish peshtoqining balandligi binoga ulug'vorlik kasb etgan, ikki tomoniga qubbachali burchak guldastalari o'rnatilgan bo'lib, usti koshinlangan. Bosh tarzi ikki qavatli. Birinchi va ikkinchi qavati- dagi hujralar turli ko'rinishga ega. O'rtasida mo'jaz hovlisi bor.

Qilichboy madrasasi ham tashqi ko'rinishi jihatidan Xo'ja Abdulaziz

madrasasiga o'xshash. Madrasa XX asrning boshlarida Qarshi shahrida yashagan Qilichboy mablag'i hisobiga qurilgan. Kirish pepggoq tarafi ikki qavatli bo'lib, sakkiz qirrali hoati atrofida hujralar joylashgirilgan. Baland va sa- lobatli peshtoqning ikki tarafida ki- chik gumbazsimon qubbalar joylashgan.

Sirlangan sopol qoplamalarning kurilish ishlarida tatbik etilishi bilan rang o'rta asrlar shaxrining kiyofasini belgilovchi muhim omilga aylangan va me'morchiliklik tarixida yangi saxifa ochilgan. Koshinlar shaxarliklar turarjoylarini o'rab turgan cheksiz paxsa devorli chang ko'chalarini kuyoshda tovlanib turuvchi ko'kish- yoqut ranglar bilan jonlantirib, o'zgacha jarangdor oxang bag'ishlagan. Amerikalik islom madaniyati tarixchilari R.Ettingauzen va O.Grabarlar ta'kidlaganidek, «me'morchilikda rangdan foydalanish musulmon madaniyatining niqoyatda muxim, noyob yutug'iga aylangan»

Ma'lumki, qadimdan ranglar bilan sexrli xislatlar va xususiyatlar bog'liqligi ta'kidlab kelinadi. Ranglar hakidagi an'anaviy tasavvurlar ko'pgina madaniyatlarda shakllangan. Ulardan bir qismini islom meros qilib olgan va o'ziga xos tarzda islom taraqqiyotiga mos ravishda talqin kilgan. Ranglar me'morchilik, san'at va hunarmandchilikda estetik ma'no ifodalashdan tashqari, kosmologiyada olamning osmon sohasi xususiyatlari, so'fiylar jamoasining ruxiy-jismoniy mashqlarida ma'naviy takomil yo'lidagi murid holati, xatto, tibbiyotda tashxis va davolash yo'llarini belgilash kabilarda qo'llanilgan.

So'fiylik tariqati tarafdorlari rang nazariyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berdilar. Ranglarga ma'lum ma'nolar yuklangan. Rang yordamida nafaqat zoxiriy, balki botiniy xayot voqeligini ham anglash mumkinligi hakidagi e'tiqoddan kelib chiqilgan (7). Shunday qilib, rang binolarga tashqi go'zallik bag'ishlash bilan birga, an'anaviy inshootlar hakidagi yashirin axborotni xam o'zida jamlagan. «Olamning majoziy ma'nosi» (8, 190-bet) rolini o'ynagan bezak singari rang xam zoxirda botinning an'anaviy ma'nosini o'zida aks ettirgan. O'z davrining taniqli so'fiy arbobi Ibn al-Arabiy (1165-1240 yillar) ko'zga ko'rinib turadigan badiiy kategoriyalar va shakllar yashirin ma'no tashuvchilar ekanligiga ishora qildi va

«kimdagi faol idrok bo'lmasa, u muammo mohiyatini anglamaydigan so'qir ekanligini» ta'kidladi.

Rangga ma'lum axborot tashuvchi manba sifatidagi munosabat u yoki bu darajada me'morchilikda ham o'z aksini topgan. Yukorida ta'kidlanganidek, qoraxoniylar me'morchiligida feruza, yashil-moviy bo'yoqlardan foydalanish rangni tatbik etish yo'lidagi dastlabki qadamga aylangan. Tadqiqotchilar bu rangdan keng foydalanish holatini asosan bezak ishlaridagi texnologik jixatlar bilan bog'lashadi. Temuriylar davrigacha qurilgan binolar bezagida paydo bo'lgan feruza rangdan keng foydalanish moviy bo'yok olishning murakkab emasligi bilan izoxlanadi (6, 431-bet). Shunga qaramay, yaqindagina ko'chmanchi bo'lgan qoraxoniylar uchun feruza, aniqrogi, ko'k- yashil rang muhim ma'noga ega bo'lgan. Turkiylarda ko'k qadimdan osmon iloxining (ko'k tangri) rangi deb hisoblangan va turkiy xalqlarning suyuqli rangi bo'lib kelgan (9). Ko'k, shuningdek, ozuqa, maysa, o'simliklar, hosildorlik ramzi sifatida ham keng tarqalgan. Aslzodalik tushunchasi ham shu rang bilan bog'langan, qadimgi kabilalardan birining nomi ashina ham «moviy», «ko'k» ma'nosini anglatgan (10). Shu sababli ham temuriylar yodgorliklari hisoblangan Ko'ksaroy, Ko'kgumbaz singari obidalarda "ko'k" so'zi saqlanib qoldi va turkiylarning iloxiylashtirilgan abadiylik rangiga bog'liq ekanligini anglatdi. L.Gumilyov ta'kidlaganidek, ko'k-yashil tuslardan iborat bu rang turkiylar tasavvurida spektr ranglari orasidagi chegarasi yevropaliklar tasavvuriga qaraganda boshqacharoq. Xususan, ko'k - ko'k - zangori rang; yashil - zangori - sariq, xira rang; sariq - sariq - pushti, yorqin rang» (9). O'trok xalqlar madaniyatida sof ranglar xukmron bo'lgan. Osmon, koinot, iloxiy dunyo obrazi mantiqan ko'k, moviy ranglarga alokador deyilgan. Aynan «iloxiy- osmoniy» ko'k rang Misr, Qadimgi Yunon, Rim, mitraizm va nasroniylar (Mitra, Iso, Onaxudo liboslari) xudolari liboslari va e'tiqod ashyolarini tasvirlash uchun qo'llanilgan. Shu bilan birga, salbiy voqealar ham ko'k rang bilan bog'lanadi. Agar ko'chmanchi qaraqalpoqlarda ko'k to'y libosi, (ko'k ko'ylak) rangi bo'lsa, Markaziy Osiyoning o'troq aholisida ko'k (och moviy) motam, dard-alam, pushaymonni ifodalovchi rangdir. Motam kunlari aynan ko'k rangdagi libos va bosh kiyim kiyilgan. Ko'k rang

soʻfiylarda keng ommalashgan. Shu munosabat bilan ularni kabudpoʻshon yaʼni «koʻk kiyimlilar» deyishgan (11, 114-bet). Bu rang zoxidlik, motam rangi boʻlgani uchun soʻfiylar uni tanlashgan (2, 233- bet). Soʻfiylik taʼlimoti asoschilaridan biri Najmiddin Kubro tasviya etgan rang nazariyasiga koʻra «koʻk kiyim soʻfiyning ruxiy takomil yoʻli boshida turganligini anglatgan», bunda «qora va koʻk rangdagi libosni soʻfiy kuyi bosqich - «nafsi ammor»ni oʻtagandan soʻng kiyadi, yuqori bosqich moviy rangdagi libos kiyish bilan ifodalanadi» (11, 118-bet).

Koʻk-moviy ranglarga dastlab oq, soʻngra sariq rang kelib qoʻshilgan. Soflik, yorugʻlik, birdamlik ramzi oq rang soʻfiylar uchun muqaddas hisoblangan. Ilgari ham yaqin, ham zid ranglarni qorishtirish asosida hosil qilingan koʻk- sariq rang uygunligi islom sanʼati uchun yangilik sanalgan va u turlicha talqinga etilgan. Usta Olim Nasafiy qurgan Otsiz maqbarasi (Shoxi Zinda, XIV asr oxiri)da mazkur ranglar uygʻunligida bajarilgan koshinlarning kishiga ruxiy taʼsiri ham hisobga olingan. Koʻk-sariq ranglar uygʻunligida osmon va quyosh nurlarida qovjiragan yer bilan bogʻliq Oʻrta Osiyo tabiati voqeligini ham koʻrish mumkin. XIV asr oxirida shakllangan temuriylar meʼmorchiligidagi koʻpranglilik musulmon dunyosida "xaft rang", yaʼni «yetti rang» (osmon kamalagi) deb yuritilgan. Bunda yukoridagi ranglar bilan birga, boshqa ranglar spektridan xam fodalanilgan. Islom madaniyatidagi bu yetti rang ham oʻzining ramziy xususiyatiga ega va uning ildizi yetti sayyora bilan bogʻliq qadimgi eʼtiqodga borib taqaladi. Bunda Oy (yashil), Mirrix (qizil), Merkuriy (koʻk, feruza), Yupiter (kulrang), Zuxro (oq), Saturn (kora), Kuyosh (sariq) kabi iloxiylashtirilgan osmon jismlari anʼanaviy maʼnoga koʻra maʼlum ranglarga bogʻlangan. Musulmon ilmi nujumi bu yetti osmon gumbazi orbitasidagi yetti yoritqich haqidagi qadimgi tasavvurlarni meros qiliboldi.

Bosh ilox- «oltin» Quyosh atrofida aylanunchi «rangli» sayyoralar gʻoyasi meʼmorchilikda kun danrlar mobayiida qoʻllab kelingan. Shu oʻrinda har bir bosqichi turli ranglarga boʻyalgan qadimgi rasadxonalar, Shumer, Pobil na Assuriya exrom, ibodatxonalari va Gerodot eslab oʻggai shox qarorgoxi atrofidagi birin-ketin koʻtarilib borgai turli rangdagi yetti xalqasimon devor shaklida qurilgan Midiya poytaxti Akbatandagi qasr kabi inshootlarni eslab oʻtish kifoya (15, 54-bet).

Me'morchilik qoplamalarida yetti «iloxiy» rangni bir qilib uyg'unlashtirish dunyoviy uyg'unlikning timsoli bo'lib qolgan osmoniy, jannatiy uyg'unlik, binolarning o'zini esa yerdagi jannat, iloxiy go'zallik ifodasi sifatida baholash mumkin.

Shunday qilib, Movarounnahr me'morchiligi temuriylar davri uchun xos sariq bilan feruza-ko'k ranggacha va nixoyat, to'yingan ko'pranglikka tomon tadrijiy yo'lni bosib o'tdi. Ko'prok bezakdorlik ma'nosiga ega ko'pranglikni dunyoviy tamoyillarining namoyon bo'lishi sifatida qarash mumkin. Rangning ramziy ma'nosi ham o'zgargan. Xususan, abadiy osmon makoni va motam rangi bo'lgan ko'k rang nozik saroy madaniyati, dabdaba va boylikni bildirgan.

An'anaviy bilimlarni hisobga olib tuzilgan ranglar ketma-ketligi ranglarning o'zaro munosabat qonunlariga teskari emas. Qoidaga ko'ra, kontur chiziklardan, shuningdek, bir-biriga yaqin tuslardan foydalangan holda qarama-qarshi ranglarni tanlash qoidalariga amal qilingan. Temuriylar me'morchiligidagi ranglar uyg'unligi mahalliy tabiat ranglariga mos ekanligi uning ko'p asrlar davomida muhim bo'lib qolishini ta'minlagan.

Ma'lumki, Sharq me'morchiligida qadimdan oralig'i keng xona va ayvonlarga yog'och ustunlar keng ishlatilib kelinadi. "Yunonlar daraxt (yog'och ustun) tuzilishini tirik organizmga: o'zagini – ustuxonga, yangi qatlamini – go'shtga, po'stlog'ini – teriga, suvini – qonga tenglashtirishgan hamda u yoki bu daraxt turiga ushbu ibtidolarning biri deb tushuntirishgan"

Tosh poy ustunlar esa yog'och (kam hollarda tosh) ustunlarga asos, taglik vazifasini o'tagan. Mahalliy ohaktosh turidan maxsus dastgohlarda yasalgan tosh asoslar fanda asosan ikki – "attik" va "torosimon" turlarga ajratilgan. Agar ularga yuqoridan qarals, handa asviy shakillar, ya'ni kvadrat va doira sharpalarini ko'rish mumkin. Kvadrat – to'rt asosiy ramzlardan biri bo'lib, osmonga zid qo'yilgan yer ramzi, shuningdek borliq va kenglik ramzi. Bu shakl harakatsizlikni anglatuvchi antidinamik, stagnasiya g'oyasini beruvchi belgidir. Astralogiyaga oid an'analarda kvadrat shakli yerni, materiyani va cheklanishni ifodalaydi.

Doira ham to'rt fundamental ramzlardan biri bo'lib, harakat, osmon, cheksizlik, borliq, vaqt, himoya ma'nosini ifodalaydi. Bu kengayuvchi markaz umumiy ramziy xususiyatga ega. U olov, qahramonlar, ilohlarga topinish bilan uyg'unlashib ketgan.

Uchburchak – ravoqlar va volyutalarning bezaklariga kirgan handasaviy unsur bo'lib, u Baqtriya me'moriy qismlarida, shuningdek, tashqari, Hindiston, Yunoniston, Rim bezakli frezlarida ko'p qo'llangan. Uchburchakning cho'qqisi yuqoriga qaragan holati tog', olov va erkaklik ibtidosi; burchagi pastga qaragan vaziyati g'or, suv va tog'lardan oshish, hosildorlik va ayollik ibtidosini anglatadi. Teng tomonli uchburchak iloh (a), uyg'unlik va mutanosiblikni ifodalaydi.

O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining nihoyatda boy bezaklari butun dunyo e'tiborini tortmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, O'zgan kabi shaharlarning betakror qiyofasini yaratgan qadimiy me'morlarning yuksak mahorati va badiiy iqtidori qalblarni to'lqinlantiradi.

Yodgorlik binolar bezaklari uyg'un rang-barang va ko'p qirralidir. Ular binolar vazifasi va mutanosibligiga mos keladi, xalqimiz madaniy an'analarini ko'zgudagidek ask ettiradi. Me'moriy binolar bezagida o'simliksimon, handasaviy va epigrafik naqsh turlarini uyg'unlashtirib, jozibali kompozisiya yaratishgan. Bunda eng keng tarqalgan garih naqshlar hisoblanadi. O'rta osiyo san'atida u o'rta asrlarda paydo bo'ldi va hozirgacha yog'och, ganj, tosh o'ymakorligi, kulolchilik, g'isht terish mozaika va devor naqshlarida foydalanilmoqda.

9-Mavzu: GANCH O'YMAKORLIK SAN'ATI

Reja:

1. Ganch o'ymakorlik san'ati rivojlanishi

2. Ganch o'ymakorlik maktablari va ularning o'ziga xos jihatlari

3.Xulosa

O'zbekiston davlati — beqiyos badiiy meros vorisidir. Ayniqsa, o'zbek xalqining betakror iste'dodi amaliy bezak san'ati sohasida, ya'ni kulollik, kashtachilik, to'qimachilik, naqqoshlik hamda yog'och va ganch o'ymakorligi,

kandakorlik, zargarlik san'ati turlarida yorqin namoyon bo'ladi. Asrlar davomida xalq ustalari tomonidan yaratilgan noyob buyumlar, xalqning madaniy hayoti bilan bog'liq holda uning estetik va ma'naviy ehtiyojlariga ham javob berib kelgan.

Amaliy bezak san'ati har bir xalqning maishiy turmushining tarkibiy qismi sifatida asrlar asha shakllanib kelgan milliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan Ammo bizgacha yetib kelgan sohalar o'zining ishlab chiqarish uslubini va zo'r san'atini saqlab qolgan bo'lsa-da, mazmunan va shakl jihatidan ancha o'zgargan. Arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan islomgacha bo'lgan obidalarda topilgan ganchdan va sopoldan yasalgan buyumlarda, metall va oltin bezaklarda, devoriy san'at namunalarida tasvirlangan jozibador obrazlarda butun bir maishiy turmush sohasi namoyon qilingan bo'lsa, musulmonchilik tarqalgandan keyin barcha binokorlik amaliy bezak san'atida mazmun va shakl o'zgarib ketgan. Ilgari zo'r mahorat bilan odamlar, turli hayvonlar va butun bir voqealar tasviri berilgan obidalar o'rniga geometrik va o'simliklar shaklidagi bezaklar asosiy o'rinni egallagan.

Amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligi ham qadim tarixga ega. Yog'och o'ymakorligidan ilgari, asosan me'morlik san'atida va ro'zg'or buyumlarini bezatishda foydalanilgan. O'ymakorlikning bu sohasida naqsh yog'ochini o'yib, kesib, chizib, teshib, taxta yoki yog'och buyumlarini bir-biriga yopishtirib hosil qilinadi.

O'zbekistonda yog'och o'ymakorligining taraqqiyot tarixini belgilashda arxeologik qazilmalar natijasida topilgan Ayritom topildiqlari (I—II asrlar), Panjikent xarobalaridan qazib olingan yog'och o'ymakorligi namunalari, shuningdek, arxitektura obidalarini muhim ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda arablar istilosidan keyingi davrlarda kuzatilgan san'at turlaridagi jonlanish an'anaviy ganchkorlik bilan bir qatorda, yog'och o'ymakorligining ham taraqqiyotiga yo'l ochdi. XIV asrlarga kelib, naqqoshlik, ayniqsa, yog'och o'ymakorligi rivoj topdi. Asrlar davomida o'sib, sayqallanib kelgan bu san'atning O'zbekiston shaharlarida o'ziga xos usul va uslublari paydo bo'ldi. Jumladan, Xiva shahri o'zining monumental o'ymakorligi bilan mashhur. Xivalik ustalar o'ymakorlikda

yog‘ochning tabiiy rangini saqlab qolish uchun hech qanday bo‘yoq qo‘llamaydilar. Buxorolik o‘ymakor ustalar naqsh zaminiga rang beradilar va naqshlarga oltin, kumush hal beradilar. Marg‘ilon o‘ymakorlari o‘ymakorlikning chuqur zaminli yassi o‘yma uslubidan foydalanadilar. Qo‘qonlik ustalar kalta bo‘rtmali yassi o‘yma usulini, toshkentlik ustalar yuzasi naqsh bilan qoplangan yassi bo‘rtmali, zaminsiz, chizma usulini yoqtiradilar. Odatda yog‘och o‘ymakorlari rassom, chizmachilar naqqoshlar bilan hamkorlikda ish olib boradilar, naqqoshlar chizgan naqsh andazasi asosida gul o‘yadilar. Hozirgi kunda yog‘och o‘ymakorligidan yirik ijtimoiy binolar va turli tipdagi mebellar, mayda uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda foydalanilmoqda.

Mazkur o‘ymakorlikka oid bo‘rtiq (gorefal) naqshlar uy-ro‘zg‘or buyumlarida va me‘morchilikda, ayniqsa eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, xontaxta, quticha, qalamdon, egar kabilarda ishlatilgan. Mohir ustalar yaratgan, bizgacha etib kelgan ayrim buyumlar hozirgacha o‘zining nafisligi, tabiiyligi va murakkabligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yumaloqtepadan, Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylardagi qazilmalardan topilgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, arablar kelishidan oldin yog‘ochdan yasalgan ma’buda (xudo)ni har bir xonadonda uchratish mumkin ekan. Odatda bunday ma’buda eshik tepasiga qo‘yilgan va u eskirsa xonadon sohibi yangi ma’buda xarid qilib, almashtirib turgan. Arablar istilosidan keyin islom aqidalariga binoan tasviriy san’atning bunday turlari, ayniqsa haykaltaroshlik butunlay barham topadi. Endilikda usta naqqoshlar yog‘och buyumlarga geometrik shaklda oddiy chiziqlardan murakkab shakllar yasashga, tabiat manzarasi va o‘simliklar aksini ifodalashga o‘tdilar.

IX - X asrlarda O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda yog‘och o‘ymakorligi yana ham rivoj topadi. Bu davrga xoslik shundan iborat ediki, o‘ymakori ustalar yaratgan naqsh zaminida qandaydir ramziy ma’no, ezgu tilak, orzu va go‘zal niyatlar ifodalangan. Ularning naqshlarida hatto timsol, duo-afsunlar, tasbeh va tanosiblar ancha ko‘p bo‘lgan.

Keyingi davrda (XI - XIII asrlar) xalq amaliy san’atida murakkab geometrik naqsh, ya’ni girih naqshi asosiy o‘rinni egallab, uy-ro‘zg‘or buyumlari,

me'morchilik naqshlari yanada badiiyoq va nafisroq ishlangan. Bunga misol qilib XI - XII asrlarga oid Samarqanddagi Shohizinda devorining orasidan topilgan yog'och o'ymakorligi namunasini, Ko'hna Urganch obidalaridagi naqshli eshik va ustun numunalarini keltirish mumkin. Temuriylar davrida yaratilgan yog'och buyumlarda hattoki tirik mavjudotlar o'yib tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Samarqanddagi Ruhobod maqbarasiining eshigidagi baliq tasviri, ayrim buyumlardagi qush, ilon kabi jonzoatlarning tasviri bunga dalildir.

O'zbek xonliklarida ham ajoyib xalq amliy san'ati namoyandalari, chunonchi, yog'och o'ymakor ustalar yetishib chiqqan. O'tgan asr oxirlariga kelib har bir xonlikda o'ziga xos turli uslubdagi o'ymakorlik maktablari paydo bo'lgan. Masalan, Buxoro yog'och o'ymakorligi naqshning jozibadorligi, jimjima bezaklarning oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanish bilan ajralib turadi. Xiva ustalari yog'och o'ymasining monumentalligi, tabiiy rangining muhtashamligi bilan boshqlaradan farqlanadi. Quva o'ymakorlari esa kalta bo'rtmali, yassi o'yma naqshlar yaratganlar. Peshtoqda ham naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Marg'ilon ustalari chuqur zaminli o'ymani qo'llab kelganlar. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Buxorodagi Sitorayi Mohi Xosa, Xivadagi Toshhovli, Marg'ilondagi Saidahmadxo'ja madrasasi, Toshkentdagi Romanovlar saroyi va A.A.Popov uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi va boshqalarda o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebaho namunalari yaxshi saqlanib qolgan.

O'zbek xalqi amaliy bezak san'atining ganch va yog'och o'ymakorligi namunalari xalqaro miqyosdagi turli ko'rgazmalarda muvaffaqiyat bilan ko'p marta namoyish qilingan. Masalan, O'zbekiston mohir ustalari o'z ishlari bilan 1925-yilda Parijda, keyin Leypsigda, 1927-yilda jahon bo'yicha, 1937-yilda Parijda «San'at va texnika hozirgi kunda» degan ko'rgazmalarda qatnashib ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal bilan mukofotlanganlar. 1939-yilda Nyu-Yorkda bo'lgan «Kelajak olam» ko'rgazmasida ham qatnashib o'zbek ustalari diplom olganlar. 1938-yil yanvarda Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekiston

pavilonlari Toshkent, Buxoro, Xiva, Farg‘ona ganch va yog‘och o‘ymakorlari ajoyib san’ati namunalari bilan bezatilgan.

Respublika poytaxtida qad ko‘targan barcha ma‘muriy, jamoat binolari, teatr, restoran, do‘kon va boshqa yirik imoratlarning o‘ymakorlik san’ati bilan bezatilgan ganch va yog‘och qismlarini yaratishda o‘zbek ustalari o‘zlarining mahoratlarini namoyish qilganlar.

Respublikada tanilgan o‘ymakorlardan Sulaymon Xo‘jayev, Olimjon Qosimjonov, Maqsud Qosimov, Ortiq Fayzullayev va boshqalar o‘ziga xos o‘ymakorlik maktabini yaratganlar va juda ko‘p ite‘dodli shogirdlar yetishtirganlar usta Sulaymon Xo‘jayevga 1932-yilda O‘zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo‘lib Mehnat Qahramoni unvoni berilgan edi. Xiva maktabi ustalaridan Ota Polvon, Sapo Boqbekov va boshqalar o‘ziga xos o‘ymakorlik san’atini yaratganlar. Ularning naqshlari maydaligi, go‘zalligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi va badiiy tuzilishi bilan ajarilib turadi. Xiva o‘ymakor ustalari asosan qayrag‘och (gujum), terak, chinor daraxt yog‘ochlarini ko‘proq ishlatadilar va ular yog‘ochning tabiiy ko‘rinishini saqlashga harakat qilib, yangi o‘yma yuzasini silliqlash, bo‘yoq surishni qo‘llaganlar.

Samarqand yog‘och o‘ymakor ustalari ham o‘ziga xos maktab yaratib, boshqa maktablarga qaraganda juda mayda naqshlar, murakkab kompozitsiyalar, ya’ni geometrik o‘simliksimon va guli girih uslubdagi lok berilgan buyumlari bilan ajralib turadi. Bu maktabning namoyondalaridan Usta Asatilla, M. Jumaboyev, Usta Nasrullo, Nurali Nazrullayev kabilar juda tanilgan.

Qo‘qon o‘ymakor ustalari yaratgan turli buyumlari (kursi, rom, quticha va hokazo) yassi, kalta bo‘tmali o‘ymali, ya’ni pargari uslubini qo‘llanilgan. Ular me‘morlikda eshik va ustullarga yirik chuqur naqshlar o‘yib yasaganlar. Marg‘ilon o‘ymakorlari ham shu uslubda ishlaganlar. Ular ko‘pincha terak, yong‘oq yog‘ochidan foydalanib, o‘yilgan naqsh yuziga to‘qroq rang berib, keyin loklaganlar.

Hozir mamlakatimizda biror shahar yoki qishloq yo‘qki, ajoyib yog‘och o‘ymakorlik san’ati namunalari bo‘lmasa. Bu sohada, ayniqsa, Xorazm ustalari nom

chiqargan. Barcha o'ymakorlik san'ati namunalari me'morchilikda, chunonchi, yirik ijtimoiy, madaniy va ma'muriy imoratlarda, restoran va kafelarda, shaxsiy uylarda ko'plab ishlatilmoqda. Ayniqsa, ustun, karniz va panjaralarda chiroyli o'simlik uslubi, har xil uy-ro'zg'or buyumlari va jihozlarda ham ishlatiladi. Mustaqillik yillarida yog'och o'ymakorligi uchun ham katta imkoniyatlar paydo bo'ldi. Imom Buxoriy majmuasi, Xotira maydoni majmuasi, Xasti Imom majmuasi va boshqa ulkan me'morchilik inshootlarida yog'och o'ymakor ustalari o'z mahoratlarini namoyon etdilar. Bir qancha o'ymakorlari O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi faxriy unvoniga, ulardan biri — Abdug'ani Abdullayev O'zbekiston Qahramoni faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.